



Biz islohotlarimiz ko'lamini va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz.

Shavkat MIRZIYOYEV



## OQQAN DARYO OQMAY QOLMAS!



Jabbor RAZZOQOV,  
O'zbekistonda xizmat  
ko'rsatgan jurnalist

*Senga navqiron yoshingda saboq bergan insonni hecham unutolmaysan. Xoh u ustoz-muallim bo'lsin, xoh ota-onang, yoki bir qadirdoning, bir umrga esdan chiqmaydi. Yaxshi kitob yoki sevimli gazetani mutolaa qilib, o'zingga manzur bilimlarni olsang-chi?! Bundan ham ortiq zavq bormi odam uchun!*

Yoshlar gazetasi biroz mudat tanaffusdan so'ng yana o'z o'quvchilariga peshvoz chiqishga ahd qilganini eshitib, shuurimga shu fikr keldi. Ha, xalqimiz bejiz aytmagan: "Oqqan daryo oqmay qolmas!"

Bu gazetada mening ham jurnalist sifatidagi eng qaynoq damlarim o'tgan. Tahririyatda katta-yu kichik barcha la-voziylarni bosib o'tib, o'n yilga yaqin bosh muharrirlik ham qildim. O'tgan asrning 80-yil-

### NUQTAI NAZAR


lari oxiri — mustaqillik arafasida jamiyatda bu nashning o'z o'rni, o'z nufuzi, o'z so'zi bor edi. Qariyb bir millionga yaqin tirajda chop etiladigan gazetani hamma o'qirdi. Haftasiga besh marta chop etilganini hisobga olsak, o'rtacha 10 millionlab odam mutolaa qilardi. Tahririyat jamoasi gazetani o'qishli qilish uchun kecha-yu kunduz izlanar, ishlar, ijod qilardi. Ular har bir dargoh, dala, ilm maskani, mahalla, boringki, osmon-u falak... hamma joyda hozir-u nozir edi. Ular uchun gazeta suv bilan havodiy eng muhim hayotiy zarurat edi. Haqiqiy fidoyi jurnalist-ijodkorlar ishlardi.

Davomi 2-sahifada.

"...BU MUKOFOT MENI  
XATO QILISHDAN QO'RQITIB QO'YDI!"



ORZU...  
(ESSE)





# OQQAN DARYO OQPMAY QOLMAS!

Boshlanishi 1-sahifada.

Yoshlar gazetasi xodimlari va muxlislarining o'sha yillardagi dadil qadamlarini – ijod namularini hech nimaga qiyoslab bo'lmaydi. O'zbek tiliga Davlat tili maqomini berish uchun olib borilgan harakatlar... Mavzu yuzasidan e'lon qilingan qonun loyihasiga bildirilgan bir varaqlik "Chala tug'ilgan bola" nomli maqolachaning qanchalik aks sado bergani keksa avlodning yodidan chiqmaydi. Yoki qatag'on qurbonlari bo'lgan Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Fitrat singari yozuvchi-shoirilar haqidagi tarixiy haqiqatlarning baralla yoritilishi, vatandan uzoqda xo'rlanib qolgan harbiy xizmatdagi askarlarimizni himoya qilib yozilgan maqolalar, "Paxta ishi", "O'zbeklar ishi"ni fosh etuvchi turkum chiqishlar, Ikkinchi jahon urushi davrida beva qolgan xotin-qizlarimizning ayanchli taqdirleri aks etgan sahifalar...

Mustaqillik uchun kurash jabhalarida oldinda bo'lish, har bir yosh qalbini Vatanga cheksiz muhabbat nashidasi bilan to'ldirish, tarixiy haqiqatlarni ochib berish, jangovar ruhdagi maqolalar, yangi-yangi she'rlarni e'lon qilib borish gazetaning, har bir yosh jurnalistning burchi edi.

Bugun o'zbek markaziy matbuotini boshqarayotgan, yangi O'zbekiston bo'yi-bastini baralla ko'rsatishga harakat qilayotgan Safar Ostonov, Ahmadjon Meliboyev, Norqobil Jalil, Sirojiddin Rauf, Islom Hamro kabi yetakchi muharrirlar o'sha davrda ana shu yoshlar gazetasi qalami o'tkir,

"o'tda yonmas, suvda cho'kmas" jurnalistlari edi.

Bu gazeta nafaqat hozirgi, balki o'tgan asrning eng ulug', eng mashhur iste'dod egalari bo'lgan, xalqimizning sevimli yozuvchi-shoirilari – Hamid Olimjon, Oybek, G'afur G'ulom, Sharof Rashidov, Zulfiya, Hamid G'ulom, Mirmuhsin, Ramz Bobojon kabi yuzlab qalam sohiblari uchun haqiqiy ijod maktabi rolini o'tagan. Keyinchalik Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, O'lmas Umarbekov, Gulchehra Nurullayeva, O'tkir Hoshimov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Sa'dulla Karomatov, Halima Xudoyberdiyeva, Omon Matjon, Rauf Parfi, Muhammad Yusuf singari el ardog'idagi adiblarning eng sara ijodlarini xalqqa yetkazishda yetakchi nashrlardan biri bo'lgan.

Vatanni sevish, mustaqillikni ardoqlash, kerak bo'lsa, uning himoyasi uchun jonini fido qilish shu zaminda yashayotgan har bir insonning muqaddas burchi. Ana shu yuksak tuyg'uni yoshlar qalbidan shakllantirish, ulug' ajdodlarining ibratli hayoti va faoliyatidan bahramand etish – ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimizning asosini tashkil etishi lozim. Bunday mas'uliyatli ishlarni birinchi galda matbuot bajarishi kerak.

Davlatimiz rahbari xalqimizning, avvalambor, yigit-qizlarining ma'naviyatini yuksaltirishga katta e'tibor qaratayotgan bir paytda yoshlar gazetasi chop etilmay turishi achinarli edi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir", deb ta'kidlab, matbuotning xizmatini

e'tirof etib turgan paytda muassislarining nashrlarga e'tiborsizligi kechirilmas holdir. To'g'ri, o'tgan 2020-yil butun dunyo uchun, shu jumladan, bizning mamlakatimiz uchun ham og'ir keldi. Koronavirus pandemiyasi davrida ko'pgina nashrlar chiqmay qoldi. Ayrimlari o'z faoliyatini elektron tarzda – saytlarda davom ettirdi. Lekin qog'ozga bosilgan gazetaning o'ri va roli boshqa. U nafaqat ma'rifat jarchisi, balki tarixni yaratuvchi yilnomadir.

Tarixdan ma'lumki, yoshlar gazetasi bundan 96 yil burun – 1925-yil 8-fevraldan ("Yosh leninchi") chiqa boshlagan. Gazeta mamlakat hayotining eng qiyin davrlarida, hatto Ikkinchi jahon urushi yillarida ham o'z faoliyatini to'xtatmagan...

Mustaqil O'zbekiston kelajagi yoshlar qo'lida. Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan olamshumul islohotlarning tag zamidida yoshlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlashga bo'lgan e'tibor yetibdi. Ilim-fan sohasidagi o'zgarishlar, oliy ta'lim va xalq ta'limi tizimidagi yangilanishlar asrlarga teng ishlaridir. Hamma yoqda ulkan bunyodkorlik – barpo etilayotgan noyob san'at obyektlari, qishloq xo'jaligi, elektr energetika sohasidagi uzoqni ko'zlab qilinayotgan ishlar, oddiy oilalardagi ijobiy o'zgarishlar – bular barchasi yangi O'zbekistonning dadil qadamlaridir. Birgina poytaxtning o'zida yuz berayotgan yangilanishlarni sanab adog'iga yetolmaysiz.

Bunday ulug'vor ishlarni, olamshumul o'zgarishlarni, ularning mohiyatini xalqqa yetkazish, boxabar qilish, qolaversa, tarix sahifalariga muhrlab, kelajak av-



lodlarga yetkazish bosma ommaviy axborot vositalarining zimmasidagi vazifadir.

Gazeta va jurnallar har bir muassasaga, xonadonga yetib borishi kerak. To'g'ri, elektron ommaviy axborot vositalari rivojlanib, o'z mavqeyini mustahkamlab bormoqda. Lekin hali mamlakatimiz qishloqlariga bosma nashrlar suv bilan havodək zarur.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, yoshlar hayoti, orzu-intilishi va muvofaqiyatlarini keng yoritish, muammo va kamchiliklari yechimiga qaratilgan ko'rsatuv, maqola va eshittirishlar tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadida ushbu yo'nalishda faoliyat yurituvchi ommaviy axborot vositalari va nashriyotlar negizida aksiyadorlik jamiyati shaklidagi "Yoshlar media xolding"ni tashkil etish va belgilangan tartibda uch oy ichida shakllantir-

ish belgilangan edi. Yoshlar ishlari agentligi qoshidagi ushbu xolding tarkibiga boshing yoshlar gazetasi ham kirishi lozim edi. Murakkab tashkiliy ishlar natijasida gazetani chop etish ham vaqtincha to'xtab qolgan edi. Bu kamchilikni bartaraf etish vaqti keldi.

Yoshlar gazetasi o'z faoliyatini boshlaganiga 96 yil to'layotgan pallada yana chop etilayotgan ekan, uni qutlashni lozim topdim. Har bir davrning o'z qiyinchiligi, muammolari bo'ladi. Bular yaxshi niyatli insonlar oldida hech gap emas. Faqat "Yoshlar ovozi" - "Молодежь Узбекистана" gazetasi jurnalistlari o'z nashri-ni mazmunli, ommabop, yangi-chi yondashuvlar bilan yanada qiziqarli qilib chiqarsalar bas. Men bunga ishonaman, u yana o'zining mushtog' mushtariylarini xushnud etadi!

## YANGI SHTAMM

### biz uchun qanchalik xavfli?

**Butun dunyoda koronavirus tarqalishining yangi to'liqini kuzatlayotgani hech kimga sir emas. Bunga infeksiyaning "britancha shtamm" va mutatsiyaga uchragan boshqa turlari paydo bo'lishi sabab bo'lmoqda.**



35 foizi yo'tal, 32 foizi charchoq, 25 foizi mushak va tana og'rig'i, 21,8 foizi esa tomoq og'rig'idan shikoyat qilgan.

Olimlarning fikriga ko'ra, virus tarkibidagi ba'zi o'zgarishlar organizmning immun reskissiyasiga va infeksiyani keltirib chiqaradigan alomatlariga ham ta'sir qilishi mumkin. Yangi shtammni yuqtirib olganlarning organizmidagi virus intensiv ravishda ko'payib ketish ehtimoli yuqoriroq. Mavjud holat infeksiyaning butun tanaga kengroq tarqalishiga hamda kuchli yo'tal, mushaklarda og'riq va charchoq paydo bo'lishiga olib keladi.

– Yurtimizda kasallikka qarshi kurashish tadbirlarining o'z vaqtida boshlangani, prezidentimizning hali

kasallik kirib kelmasidan turib chiqargan farmonning ijrosi, kasallikka qarshi kurashish, uning oldini olish va doimiy ravishda nazorat qilish bo'yicha respublika maxsus komissiyasining tashkil etilgani evaziga mamlakatimizda kasallanganlarning 98 foizini o'z vaqtida davolash va oila davrasiga qaytarishga erishdik, — deydi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati boshlig'i o'rinbosari Botir Qurbonov. — Kasallikka oid vaziyat dunyoning bir qator mamlakatlarida haligacha murakkabligicha saqlanib qolmoqda. Britancha shtammning paydo bo'lishi oqibatida mamlakatimizga Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstriya, Avstraliya, Niderlandiya, Italiya, Daniya, Janubiy Afrika respublikalari bilan to'g'ridan to'g'ri aviareyslar bekor qilindi. Ushbu mamlakatlarda bo'lgan fuqarolar uchinchi davlat orqali kirib kelganda 14 kunlik karantinga olinishi joriy etildi. Amalg'o oshirilayotgan barcha ishlar aholi salomatligi uchun, albatta. Bundan to'g'ri xulosa chiqarib, karantin qoidalar-

iga qat'iy rioya qilish orqaligina kasallikni yenga olamiz. O'quv muassasalarida tarbiyachilar, o'qituvchilar vaziyatga mas'uliyat bilan yondashishlari talab etiladi. Binoga kirish-chiqishda bolalarning tana harorati o'chab borilishi, dars jarayonlaridagi tanaffuz paytida xonalar shamollatilishi hamda zararsizlantiruvchi vositalar yordamida tozalanishi lozim. Shuningdek, antiseptik vositalardan doimiy foydalanish, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish shart. Tibbiy niqoblar yuqumli kasalliklarning barcha turida, ya'ni yuqori nafas yo'llari orqali yuqadigan kasalliklardan himoyalashda asosiy vosita hisoblanadi. Shuning uchun ham aholi niqobdan to'g'ri foydalanishi va vaqtida almashirishi lozim. Bundan tashqari, salomlashish qoidalariga rioya qilsak, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

To'g'ri, mutasaddilar va mutaxassislar takidlayotganidek, ayni paytda mamlakatimizda epidemiologik vaziyat ijobiy va barqaror. Ammo bu bizning xatirjamlikka berilishimizga asos bo'la olmaydi. Chunki virusning

### SALOMATLIK

yangi turi yurtimizga ham kirib keldi. Bu barchadan birdek hushyorlikni talab etadi. Shu bois barchamiz jamoat hamda ish joylarida tibbiy niqobni to'g'ri va doimiy tarzda taqish, ijtimoiy masofani saqlash, qo'llarni muntazam yuvish kabi kundalik odatlarni kanda qilmasligimiz kerak. Shuningdek, yurtdoshlarimiz zarurat bo'lmasa, shunchaki ko'ngilxushlik yoki hordiq chiqarish uchun chet el safariga o'tlanmasliklari lozim. Sababi har bir harakatimiz erdagi kun uchun muhim ahamiyatga ega.

Ayniqsa ta'lim muassasalarida doimiy karantin qoidalariga rioya qilish talab etiladi. Uyda ota-onalar, ta'lim dargohida murabbiylar o'g'il-qizlarga mavjud vaziyatni tushuntirishlari va nazoratni kuchaytirishlari talab etiladi. Karantin tugadi qabilida ish tutib, ko'cha-ko'ya, ta'lim muassasalarida niqobsiz yurgan fuqarolarni to'xtatib, dakk berishdan o'zimizni tiymaylik.

Ma'mura HUSANOVA

Buyuk Britaniyaning Milliy statistika xizmati koronavirusning "britancha" deb ataluvchi yangi shtammga yo'tal, kuchli charchoq, tomoq va mushaklardagi og'riq kabi belgilar xos ekanligini, ammo hid va ta'm sezmaslik alomati avvalgi

shtammdagiga qaraganda kamroq uchrayotganini aniqladi. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadi, yangi shtamm birinchi holatda bo'lgani kabi uchta emas, ikkita gen bilan mos keladi. 3,5 ming kishidani iborat yangi shtammni yuqtirganlar guruhidan:



# “...BU MUKOFOT MENI QO‘RQITIB QO‘YDI!” XATO QILISHDAN

SUHBATDOSH



Intervyu-trilogiya

(“Yosh kitobxon – 2018” respublika tanlovining 10-14 yosh toifasi bo‘yicha mutlaq g‘olibasi Mahliyo O‘roqova bilan “to‘fon” tinganidan keyingi suhbat)

*“Bozordagi dallollardan emas, hayotdagi dallollardan qo‘rqing. Bozordagi dallol narsangizni olib sotadi. Hayotdagi dallollar esa, ko‘nglingizni...”*

**1-qism: maqsadlar...**

U haqida nimani bilardim, o‘zi? Aytarli, hech nimani! Odamlar og‘zida urchigan emish-memish gaplarimgina eslayman: “...otasi oddiy qorovulakan, maktabda. Lekin topqan pulidan orttirib, uyiga kitob ko‘tarib kelarkan. Enasi “uborchisa”ymish... Shu o‘ladan shu-unday qiz chiqipti-yey!” Ochig‘i, bu gaplardan ko‘p ham hayrat yoqasini tishlamaganman. Nima qipti, bunday oilalar tumanimizdagina emas, butun yurtda qalashib yotibdi-ku! Ayniqsa, hozir – ishsizlik ko‘paygan bir zamon-u zaminda, qaysidir davlat idorasida otang qorovuli, onang farrosh bo‘lib ishlashining o‘ziyam katta gap!..

Meni bo‘lak bir o‘y tinch qo‘ymaydi: agar shu qizgina respublikagacha chiqmaganda va prezident sovg‘asi sanalgan “Spark”ning kalitini hammaning ko‘z oldida qo‘liga olmaganda, uning shu qorovul otasining ham, shu farrosh otasining ham, ularning ro‘zg‘ordan ortirganicha, kitob sotvolib turishlarining ham... qanchalik qizig‘i bo‘lardi, biz uchun?! Muxbirlar pashshaday yopirlarimdi, shu loysuvoq uyularga? Hokimiyat tumandagi yangi qurilgan “Namunali uy”lardan berarimdi, shu kamsuqum-u ko‘p jonli oilaga? Va men ham, oradan uch yilcha o‘tgan esa-da, yilning yoshlarga taalluq nomlangan joyi borligi uchun ham ertalabdan, fotokamera-yu qog‘oz-ruchka ko‘tarib, kelib olgan bo‘larmidim? Hamda, mana, yarim soatdirki, gapni nimadan boshlashni bilolmay, bir qarshimda qarab

o‘tirgan besh juft beg‘ubor nigohlarga, bir o‘rtadagi xontaxta uzra yoyib tashlaganim qog‘ozlarga alanglab, o‘tirgan bo‘larmidim?..

Xo‘p, mana, o‘sha kitobxon qiz: guldor nimchayu alvon xalatda, bitta qilib tugilgan uzun sochlarini ortiga tashlab olgan, jimgina tikilib o‘tiripti, o‘ngida otasi, so‘lida onasi, pinjida esa, dasturxonadagi qand-qursga hujumni mo‘ljallayotgan kenja singliyu ukachasi... Ko‘zlaridagi o‘t o‘chmabdi.

Hayriyat! Zotan, mashhurlik adog‘ida xafsalaning pir bo‘lishi, ishonchsizlik, so‘niklik yotadi, ko‘pincha. Nima bo‘lgandayam, butun bir oilani alag‘da etib keldimmi, so‘ranimni so‘ray endi. Ammo... nimani so‘rayman? Yarim tungacha savol o‘yladim, kecha ishonxada, u yoqdan bu yoqqa yurib. Oxiri qorovul kirib keldi: “... bugun ketasanmi o‘zi, yo‘qmi?!”

Savolsirayotganimni aytganimda, kulimsiradi: “... Ahvoling qanday? Yaxshimisan?”, deb boshlayvurasan-da!.. Kulimsirash mening-da miyog‘imga qo‘ndi: “...bunday savollarni unga hamsoyasiyam beruvrardi, aka!..” Ehtimol, shu qorovul aytganicha borgan ma‘quldir: xiyol to‘pori, lekin samimiyo...

...choydan oling? Onasining jamiki onalarga xos bo‘lgan mehrii sarda piyola uzatganidan xayollarimni yig‘ishtirdim. Choyning qaynoq taftidan hofizam yuzasidagi muzlik ko‘chib tushganday bo‘ldi-yu ochilib qolgan ko‘chmas-u o‘chmas xotirotimdan bir shingilini tilga toshirdim:

– Rahmat, Anora opa!.. Malol olmasangiz, ismingizni aytish menga taskin beryapti! Axir,

ayam bilan otdosh ekansizlar... Hech esimdan chiqmaydi, bir kuni maktabdan kelib, ayamni axtardim... Menimcha, hamma bolayam uyga kirasolib birinchi ayasini axtaradi... Axtaraman-axtaraman, yo‘q! Chaqirib boshladim. Qaydandir “Hu-uv!” degan ovoz keladi. “Qaydasi-iz?” desam “Podvaldama-an?” dedi ayam. “Podvalda nima qilyapsiz-iz?” desam, “O‘zimni osyapman-an!” desa bo‘ladimi. Shappa borib qarassam, ayam anor osayotgan ekan, yerto‘laning shiftiga... Gurra kulgi ko‘tarildi. Kulgiga qo‘shilib, oradagi tanglig-u taranglik ham ko‘tarilib ketdi, go‘yo. O‘zingga shukr! Ana endi suhbatga ko‘chsak ham bo‘lar. Shoir aytmoqchi, “...lahzani ushlab qol, lahzani” (Eshqobil Shukur).

– ...xo‘-o‘p, Mahliyo! Kecha internetni kavlab, yuz ellikta manbani ko‘rib chiqdim, Siz haqingizda: “Zamon” informatsion dasturi, Xabar. uz sayti, Qalampir.uz rasmiy kanali, Yoshlar ittifoqining feysbukdagi sahifasi, “Chegarasiz” turkumidagi qisqa metrajli filmlarning sizga bag‘ishlangan qismi, Telegram kanallari, Odnoklassniki.ru videolarigacha... Keyin turib, arxiv javonlarini titkladim: “PAXTACHI” gazetasining 2018-yilgi sonlarida-ku bir necha karra yozishti, 2019-yilgi sonida ham borsiz... Internet ayuhannosi ham 2019-yildan tinchigan-qolgan. Yo‘q, ko‘rib turibman, qishloqda, hamma qatori, tinchgina yashayapsiz... Ammo orzularingiz-chi? Yo‘lalar ham “hamma qatori” degan qolipga tushib bo‘ldimi?..

– Maktabni bitirayotgan bolaning orzusi bugun nimayam bo‘lardi, o‘qishga kirish-da. Men ham... hozir o‘ninchida qo‘yotgan bo‘lsam... beshinchi sinfdan beri maqsadim o‘zi shu – oliy o‘quv yurtiga kirish! Shunga abituriyentlik, maktab... bilan o‘tyapti kunlarim.

– Qayerni mo‘ljallayapsiz? – Mo‘ljalmi?.. Xudo xohlasa, shu... HUQUQSHUNOSLIK sohasiga qiziqaman.

– Yuridik universitetgami, unda niyat?

– Balkim shudir, balkim militsiya akademiyasiga topshiraman... Ko‘raman-da hali, tayyorlanaveray-chi. O‘zi... haqiqiy niyatim – DIPLOMATIYA! Ammo ungacha huquqshunoslikni o‘rganmoqchiman.

– Qanchalik o‘rganmoqchisiz? Masalan, Navoiy pedagogika institutida ham huquqshunoslik fakulteti bor. Bu sohadagi oliy ta‘limga kirishnigina niyat qilganlar uchun o‘sha fakultet ham kifoya...

– Yo‘q!.. To‘g‘ri, kichkinaligimda orzu qilardim, Navoiyda o‘qishni. Lekin kattarishim barobarida orzularim ham kattardi. Poytaxtda o‘qish boshqacha-da baribir, deb o‘ylayman... Peshana-da uyog‘i. Yana bilim, harakatdan to‘xtamay boraveray-chi...

– Huquqshunoslik, diplomatiya... ochig‘i, filolog, faylasuf, adabiyotshunos yoki tarixchi bo‘lmochidirsiz, degan tasmolda edim. Kitobni, ayniqsa, badiiy asarlarni mahkam tutganlarning maqsadi, ko‘pincha, hozir sanaganlarim kabi bo‘lardi. Siz esa...

– Ha, adabiyotni, tarixni ko‘proq o‘qiymen. Qiziqaman. Ta’sirlanaman... Lekin maqsadim boshqal..

Men o‘zi, bitta tomonim bor, judayam haqiqatga o‘chman. Qanday bo‘lmasin, adolat qaror topishini istayman. Misol uchun, beshinchi sinfdan insholar tanloviga qatnashib boshlagan bo‘lsam, har safar berilib yozardim inshoni. Lekin... boshqalarni g‘olib qilishardi. Tushungandirsiz?.. Ehtimol, o‘sha paytlardan bu maqsadni ko‘nglimga tuggandirman...

– Birinchi... ona tili-adabiyotdan qatnashgan yili... “bilimlar bellashuvi”da g‘olib bo‘luvdi, – deya otasi Toshtemir aka, neder istiholada suhbatimizga qo‘shildi, – lekin... ko‘p o‘tmay... boshqasini “g‘olib” qip qo‘yishuvdi-da. O‘zlaricha “appilyatsiya” qilgan, lekin buni chaqirishmagan. Endi... bizam bordik keyin, so‘radik, nimaga bunday deb... “Pulsiz ish bitmaydi”, degan gapga boruvdi-daey, oxiri... Diktufon yozmayaptima?!

– Diktufon-ku zozyapti, lekin tashvishlanmang! Bunday gaplar allaqachon yozilishi, aytilishi kerak edi, shusiz ham. Kechikdik... a-ancha kechikdik... Xo‘p, demak, shundan ichingizdagi “dinamit”ning piligi yonipti-da?

– Ha. Tanlovlardayam, hayotdayam... umuman hamma narsada haqiqat bo‘lishini xohlayman! Shuning uchunam bir nohaqlikka guvoh bo‘ldimmi, tamom, yo‘-o‘q, noto‘g‘ri qilishdi-i, undaymas bunday bo‘lishi keragidi-i... deb lovullab yuraman, ancha payt. Va shu kechinmalarimdan o‘tib chiqqan yana bir niyatim bor, faqa-at yuridik soha bilan cheklanmay, XALQ TA’LIM VAZIRI bo‘lish! Xalq ta’limini butun respublikada qaytadan ko‘rib chiqmoqchiman. A, buning uchun bir-rinchi o‘rinda, chet elga chiqib, rivojlangan davlatlarni o‘rganish rejasidaman. Yo‘q, men ularni aynan ko‘chirib kelmoqchimasman O‘zbekistonga. Ko‘rmog‘chiman, qani, ular nima uchun bunchalik rivojlangan? Diplomatini maqsad qilganimgayam sabab shu. To‘g‘risi, bunday tanlo-ov, bir balolardan ko‘nglim to‘lmaydi. Hozir-ku haqiqat bo‘lyapti, biroq baribir... Huquq va diplomatiya. Ikkalasiga ham erishmoqchiman! Shundaygina haqiqatning to‘liq qaror topishiga hissamni qo‘sha olaman.



# “...BU MUKOFOT MENI QO‘RQITIB QO‘YDI!” XATO QILISHDAN

Boshlanishi 3-sahifada.

– Bundan chiqdi, oddiy shifokor yo haydovchi, yoki o‘qituvchi bo‘lib, haqiqatni qaror topdirib bo‘lmaydi... Shundaymi?

– Yo‘-o‘q, bo‘ladi-i... Oddiygina hunarmand ham, agar kurashsa, haqiqatni yuzaga chiqara oladi. Men ta‘limdagi, iqtisoddagi... qisqasi, taraqqiyotdagi ulkan haqiqatlarni qaror topdirish haqida gapiryapman. Yurtingni boshqa davlatlar bilan bevosita solishtirib ko‘ra olish uchun diplomat yo sayyoh bo‘lish kerak.

Men esa, sayyoh diplomat bo‘laman, nasib etsa. Ya‘ni hech qachon “rasmiy tashrif” bilan bormayman xorijga Xuddi bir sayyoh kabi, o‘zim uchun borganay boraman: erkin, bemalol, vaqtim-u vazifamni qoliplamay... O‘ylaymanga, O‘zbekiston bu iqlimi, bu tabiiy resurslari, bu tinchligi, bu mehnatkash aholisi bilan allaqachon rivojlangan davlatlar qatorida bo‘lishi kerak edi. Ammo, biz haliyam rivojlanayotgan davlatmiz. Deylki, Yaponiya: seysmik jihatdan o‘ta noqulay nuqtada joylashgan, kuniga to‘rt martagacha zilzila bo‘ladi, Xirosima bilan Nagosakisida hanuzgacha bolalar nuqsonli tug‘iladi... Lekin rivojlangan davlat!.. Shuning uchun ham qiziqaman-da diplomatiyaga.

– Chingiz og‘aday bo‘larkansiz-da? Xorijiy diplomat bo‘lgan-ku...  
– Aytmatovmi?.. Hayotini unchalik o‘qimaganim, rosti. Biz faqat ijodini o‘qishimiz keragidi...  
– O‘xshatish o‘rnida aytdim-da. Umuman, dunyoga yozuvchi bo‘lib tanilgan diplomatlarning asarlari ham yaxshigina tanilqi. Bittasi shu Chingiz og‘a... To‘g‘ri, jurnalistikadan boshlagan yozishini. Aniqrog‘i, o‘zlarining ovulida chiqadigan, qo‘ylarning junini qirquvchilar hayotini yorituvchi “Qirgimchi” gazetasiidan... Yana bittasi Vikas Svarup. Hant diplomati. Londondagi kvartirasida yolg‘iz o‘tirib-otirib, zerikkanidan kitob yozish xayoliga keladi. Anchadan beri ichida pishitib yurganlarini qog‘ozga tushirib boshlaydi. Kamiga arxivdagi, elchixonadagi tanishlaridan yordam so‘raydi. Va yozgan “Savollar va javoblar” kitobi ko‘p o‘tmay mashhur jahon bo‘ladi. Ingliz rejissori Deny Boyl kino oldi, shu kitob asosida – “Xarobadan chiqqan millioner”. U kino esa, “Oskar” oldi...  
– Lekin... nechta ijodkoring hayotini o‘qigan bo‘lsam, juda ko‘pi jurnalistikadan yo filologiyadan yetishib chiqqan bo‘ladi... (otasinging telefoni jiringlab qoldi. Mahliyoning repitetori ekan. Savolomuz qaradi: “...gaplashib olsam maylimi?” Telefoni qulog‘iga qo‘yganicha, tashqariga o‘qday otildi. Qaytguncha singilchasi Zulfizar va kenjatoy Sherbek bilan g‘ujurlashdik. Katta singlisi Muhayyo o‘sha kuni Samarqandga – olimpiadaga

jo‘nab ketgan ekan. Katta ukasi Shuhrat esa, tortindi chog‘i, ko‘rinmasdi...).

– Qaysi fanlardan repitetorga boryapsiz?  
– Ona tili-adabiyot, tarixdan, – dedi otasiga telefonini qaytararkan Mahliyo.

– Xalaqit bermadimmi o‘zi?  
– Sirayam. Kursim soat birga.  
– Nimaga kollejni tanlamadingiz?  
– Bilmadim... Hamma bilimi to‘r o‘qituvchilarim maktabda bo‘lgani uchundir, balki. Keyin... o‘qishga bir-ikki yil qolganda, yangi muhitga borish... tavakkal narsa-da.

– Yana birorta tanlovmi-musobaqaga qatnashish orzuingiz bormi kelgusida?  
– “Zulfiya” mukofotini olmoqchiman!..  
– Zulfiyani qanchalik o‘qigansiz o‘zi? Vijdonan ayting-chi?  
– Hayotidan xabarim bor. She‘rlarini... ko‘p o‘qimaganim lekin. Momomning hayotiga o‘xshash bo‘lgani uchun ham shaxsiga hurmatim baland!.. Umuman, she‘riy kitob o‘qimay qo‘yganman hisob. Bolalikda o‘qirdim. Hatto o‘zimam she‘rlar yozganman bir vaqtlar. Bugun o‘sha she‘rlarimni o‘qisam, ishongim kelmaydi o‘zim yozganligimga. Chunki hozir bir qator ham she‘r yozolmayman... Bilmadim, nimaga?.. Hikoyalar yozayman. Faqat hikoya... Roman ham yozgim keladi. Miyamda pishitib yurgan katta bir mavzu ham bor. Atay o‘zimni bosib turibman...  
– Sabab?  
– Hayotni yaxshi bilmayman, hai! Yana... odamlarni, taqdiratini, tarixlarini o‘rganishim kerak... Davlat arxivlariga kirishim kerak... Ko‘p joylarga borishim, ko‘rishim kerak. Hozirgacha bir shu Samarqandni ko‘rdim, Toshkentni ko‘rdim... E, uallas, hozir yozsam... yosh bolaning gapiday bo‘p qoladida.

– Svetlana Alekseyevichni esimga soldi bu gaplaringiz. Ukrainalik jurnalist ayolni aytyapman. Ikkinchi jahon urushida qatnashgan ayollar haqida yozish uchun butun Rossiya, Ukraina, Polsha, Chexiya davlatlarini kezib, “frontovitsa”larni topgan. Uylariga borib, ularni tinglagan. Birovi yig‘lagan faqat, birovi so‘kkan, birovi zaharxanda otgan, birovi telefondayoq rad etgan... Alqissa, magnitofon tasmasida neki to‘playolgan bo‘lsa, bari bitta kitobga bo‘lgan. Shu kitobi uchun Svetlanani, adashmasam, 2016-yilda adabiyot yo‘nalishi bo‘yicha “Nobel”ga loyiq ko‘rishdi. Bizning tilgayam tarjima qilindi, u kitob – “Urushning ayoldan yiroq qiyofasi” deb... Chindanam urushning biz bexabar bo‘lgan qiyofasini ochib bergan... Umid qilamanki, Mahliyo, inshaalloh, yozajak romaningiz ham hayot va tarixning bizga qorong‘i tarafarini xolis yoritadi!..

...Mahliyoni eshitganim sari, to‘g‘ri ma‘noda, maqsadlarning “qaynar xumchasi”ga mengzadim: oliy o‘quv yurtiga kimoqchi, huquqshunos bo‘lmoqchi, kamida to‘rtta til o‘rganmoqchi, yurt

kezmoqchi, xorijga chiqmoqchi, Oksford-u Kembrijlarda tahsil olmoqchi, ta‘limni isloh etmoqchi, kitob yozmoqchi... Ha, bu aytayotganlari bolalarcha orzu emas, oldiga qo‘ygan tayin maqsad bari. Xossatan, erishish uchun harakat qilyaptimi, endi u orzu emas – MAQSADI Ajab, bir Mahliyodamikin, shu qadar maqsadlar? Axir, uning ham sinfdoshlari bor, dugonalari bor, ko‘chadagi tengdoshlari bor... Ulardayam shu kabi maqsadlarni ko‘rarmikin?

– ...uncha ko‘p ko‘rmayman!..  
– dedi o‘ychan tortib Mahliyo.  
– Qiyinaladi qizlar... Sinfimizda o‘n uchta qiz bo‘lsak, ko‘pining ota-onalari tushunmaydi. Hattoki, sharoiti to‘kislaridayam taqiq ko‘p: “...uydan chiqma!”. Eshitganlari shu... Ularga faqat ro‘zg‘or ishlarini o‘dbon o‘rgatishadi va maktabni bitirganidan erga berishadi... Tamom! Sinfdayam qizlar uyida qilgan yumushlarini aytib beradi, eshitib og‘zini ochiladi. Nima desam, ular halitdan ro‘zg‘or qurgan ayolday bo‘p qolishgan... To‘g‘ri-i, mengayam uy supirtirishadi, ukalarimga qarayman... Qiz bola hamma yoqni ozoda tuta bilishi kerak-da, endi. Lekin ishga ko‘m-mib tashlashmagan-da... Qizlarni gapiryapman, faqat. O‘g‘il bolalarimizni-ku gapirib o‘tirishga hojat ham yo‘q: yettinch sinfdan ishga chiqib ketishadi, oshxonalarida, qurilishda tirikchilik uchun yurishadi... Sinf sardori bo‘lganim uchun ham o‘g‘il bola sinfdoshlarimdan, “Maqsading nima o‘zi hayotda”, deb so‘rab ko‘raman. Har gal bir xil javob olaman: “...ey, shu ustachilik qilaman, umrim o‘tadi!.. Umidsizlikka tushib bo‘lishgan. Shu hollaridan oshmagancha, ular ertaga turmush qurishadi va qarabsizki, yana bitta kambag‘al oila shakllanib turibdi-da!..

Tengqurlari bobida joniqib so‘zlarkan, ich-ichimdan bosh ko‘tarayotgan savollarimga, savolga tabiiy ila sezgandek, mulohaza siyoqida javob berib borardi. Shu bilsam ham sukutda tingladim. Uzoq tingladim. Bu xuddi kinningdur fasod bog‘lab ketgan yarasiga noxos tegib o‘tganing singari bir hol. U zirqirayotgan yarasini ushlab ingraydi, ixraydi, bukhayadi, manglayini trishtirib, lab tishlaydi... Sen esa ilojisiz, uzrxoh qarab turaverasan. Ketib ketolmayсан, qolib bir nafing tetmaydi...  
– ...tikish-bichishni biladigan qizlarimizga o‘zing tikuv sexi ochsang bo‘lmaydimi, qachongacha bo‘yicha “Nobel”ga loyiq ko‘rishdi. Bizning tilgayam tarjima qilindi, u kitob – “Urushning ayoldan yiroq qiyofasi” deb... Chindanam urushning biz bexabar bo‘lgan qiyofasini ochib bergan... Umid qilamanki, Mahliyo, inshaalloh, yozajak romaningiz ham hayot va tarixning bizga qorong‘i tarafarini xolis yoritadi!..

...Mahliyoni eshitganim sari, to‘g‘ri ma‘noda, maqsadlarning “qaynar xumchasi”ga mengzadim: oliy o‘quv yurtiga kimoqchi, huquqshunos bo‘lmoqchi, kamida to‘rtta til o‘rganmoqchi, yurt



kitobingni o‘qi, o‘z ustingda ishla, bor, qatnash, Paxtachining nomini ko‘tar, chiq, shu qishloqdan!.. Yaqinda ayamga qo‘shilib, banklarga bordim. Holbuki, bankda ish-pishim yo‘g‘idi. Shunchaki, qiziqdim, bank tizimlarimiz qanday ishlashiga... Ishonasmizmi, hatto, mol bozorigacha borib kelganman. Molbozorning qanday bo‘lishini o‘z ko‘zim bilan ko‘rgim kelgani uchun. Asarlarda o‘qib, qiziqib qolgandim, qanaqa bo‘larkan o‘zi molbozor deb... Yo‘q, men, bolani erka qilib o‘stirish, nima desa ko‘nish kerak, demochimasman, bu bilan. Tekshirib, nazorat qilib turish kerak, albatta. Qani, kimlar bilan, nimalar qilib yuribdi... xabardor bo‘p turish kerak... Men bolani ERKIN qilib o‘stirish kerak, deyaipman!.. Mengayam taqiqlar bor, albatta: tirikdor bo‘lganim ota-onam ruxsat berishmaydi. Beshinchi sinfigimdan shunday... A-a, ularda esa, aksincha taqiqlar: o‘tirishlarga, saymalakka, archaga, parkka, turi bayramlarga qo‘yishadi... Ammo kutubxonaga, o‘quv markaziga, to‘garaklarga, tanlovlariga borish uchun ruxsat yo‘q. Ko‘ylak olib kiyishlari uchun yuz-ikki yuz ming so‘mlab pul berishadi. Lekin kitob uchun o‘n ming so‘m berishmaydi... O‘zlari boy bo‘lmasayam, boylardan ortiq sharoit qilib bo‘lgan. Shularni ko‘rib turib, o‘zlari ziyoli bo‘lmasayam ziyolilardan ziyoda tushungan ota-onam borligi uchun shukrlar aytib charchamayman!.. O‘zimdanda katta sinf o‘quvchilari oldimga yig‘lab kelardi, sening ota-onang bilan mening ota-onam almashib qolishlarini juda istayman, deyshardi!..

Birdan shu choqqacha unsizgina o‘tirgan otasining burni sho‘rillay boshladi. Vazmin ko‘tarilgan qadoq qo‘llari bilan burnini emas, ko‘zlarini artardi... Ajab, nega bu odam beli og‘rib topgan pulliga aroqmas kitob ko‘tarib keladi uyiga? Nega tanlov deb, o‘lis yo‘llarga chiqayotgan bo‘y qiziga so‘zsiz ishonadi? Nima uchun bolalariga bunchalar o‘xshovi yo‘q erkinlik berib o‘stiryapti?.. Azbaroyi ichimga sig‘dirolmaganim bu savollarni o‘ziga bergandim hamki, butun suhbat davomidagi eng qisqa va eng soddajavobni eshitdim:  
– Endi... o‘zida itilish bo‘g‘andan keyin... erkinlik berish kerak-da, – deya javob beradi otasi.  
– ...ammo faqat ota-onalarni

ayblayverisham noto‘g‘ri, menimcha, – deya davomladi Mahliyo. – Ularniyam shunday tarbiyalashgan-da bolalikda. Endi bolalarida taqdiratni takrorlanaypti. Tushunsa bo‘ladi... Maqsadni baland olgan sinfdoshlarim ham bor, sanoqli: Avaz, Asilbek, Fazliddin, qizlardan beshtamiz yana... Replitor boradiganlarimiz-da bular. Shu sakkizovimizning suhbatimizdan mazza qilaman! Xudo xohlansa, birgalikda jamiyatning siyosiy hayotiga kirib bormoqchimiz!.. 2021-yil “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili...” bo‘lganidan juda xursandligimning bir tarafiyam shunda. Zora, mana shu yildagi imkoniyatlar sabab bo‘lib, maqsadni baland olib intilayotgan yoshlarimiz niyatlariga yetib qolsa...  
– Kitob o‘g‘rilanganmisiz, Mahliyo? Men, masalan, ha. Rosa o‘g‘rilanganman, bir zamonlar...  
– Bir marta. Uchinchi sinf paytim partada qop ketgan bir sakkizinchi sinf darsligini uyga opkegandim. Ayam ko‘rib, tez joyiga qaytar, degan. Ertasiga qaytarib oborgandim...  
– Kitobni atayin yirtgan paytingiz-chi, bo‘lganmi?  
– Bolalikda ayam bir katta kitobni o‘qib-o‘qib uxlab qolgan. Men o‘ynab borib, o‘sha kitobni mayda-mayda qilib yirtganicha uyub qo‘yganman, ayamning oldiga... E, unda kitob nimaligini bilmasdimam-da.  
– Kitobxo‘rligingizdan pushaymon qilganmisiz?  
– Yo‘q... Mazax qilib kulganlar bo‘lgan. Ko‘chaga kitob opchiqsam, bittasi yengillik qilmayaptimi-i, ikkita ko‘tarib chiqqaningda og‘irroq bo‘lard-i, deyshardi, masalan... Tashlamadim, baribir. Natijasini bugun ko‘rib, bilib turipti hammasi.  
– G‘oliblik siz uchun nima?  
– Mas‘uliyat! Shu kitobxonlik bellashuvida g‘olib bo‘lganimdan buyon odamlar bosgan har qadamimni kuzatishadi. Sa-al mundayroq gapirib yuborsamam baloga qolaman. Xato-pato qip qo‘ysam-ku, urdi Xudo: “...a, ko‘rdik, ana, kitobxon qizning ahvolini-i... Bo‘gani shuyakanku-u...”. Axir, men ham odamman? Adashishim mumkin... Bu mukofot meni xato qilishdan qo‘rqitib qo‘ydi!..

Sherbek BOBOQULOV suhbatlashdi.




РЫНОК ТРУДА

# МОЛОДЕЖНАЯ БЕЗРАБОТИЦА: КТО ВИНОВАТ И ЧТО ДЕЛАТЬ?

БОЛЬШЕ ВСЕГО ВАКАНСИИ

Сегодня официальный уровень безработицы среди юношей и девушек 18–30 лет составляет 17 процентов. Неучтенное количество – еще больше. Как же решать столь важную проблему?



Об этом шла речь на состоявшемся под председательством Президента видеоселекторном совещании по вопросам обеспечения занятости и содержательной организации досуга молодежи.

Глава государства отметил, что в Узбекистане численность юношей и девушек до 30 лет составляет более 18 миллионов человек, или около 55 процен-

тов населения. Среди основных факторов безработицы названы недостатки в профессиональном обучении, трудоустройстве и кредитовании молодых людей.

Анонсирована новая система работы с подрастающим поколением, которая будет вестись по двум направлениям. Первое – поддержка молодежного предпринимательства, обеспечение занятости через обучение вос-

требуемым специальностям. Второе – организация содержательного досуга.

Сегодня республиканская рабочая группа изучает предложения юношей и девушек, проживающих в регионах. На основе полученной информации сформированы программы в разрезе районов и городов. Среди выявленных проблем – неудовлетворительная материально-техническая база большинства культурных центров, парков и спортивных комплексов. Многие кружки и секции работают для «галочки». Все это мешает проводить свободное время с пользой, приобретать необходимые знания и навыки.

Президент указал на необходимость обучить в текущем году 500 тысяч молодых людей профессиям и предпринимательству. Даны поручения увеличить количество традиционных или дистанционных курсов в районах и городах. Определены задачи оснащения моноцентров «Ишга мархамат» и колледжей, разработки профессиональных стандартов и повышения ква-

лификации тренеров. Для этого правительство намерено привлечь кредит Азиатского банка развития в размере 93 миллионов долларов.

Кроме того, в рамках программы «Молодежь: 1+1» планируется закрепить юношей и девушек за предпринимателями, развивать их деловые навыки, предоставлять им льготные кредиты и помогать открытию собственного дела. Министерству инвестиций и внешней торговли поручено создать на местах молодежные зоны промышленности и бизнеса.

На совещании особо отмечено, что при решении проблемы безработицы не учитываются существующие вакансии. Например, в Ташкенте зарегистрировано 26 тысяч нетрудоустроенных юношей и девушек. Вместе с тем в столице имеется 77 тысяч свободных рабочих мест, 45 тысяч из которых не требуют наличия высшего образования. Такие вакансии можно заполнить, обучив молодежь профессиям и присвоив ей квалификационную категорию. В связи с этим Министерству занятости и трудовых отношений поручено создать центры оценки квалификации в структурах «Ишга мархамат», а также в ряде вузов и крупных отраслях промышленности.

Рассмотрен и еще один важный фактор обеспечения занятости – выделение земли для ведения сельского хозяйства. Однако из 14 тысяч молодых людей, обратившихся по этому поводу в прошлом году, участки получили лишь три тысячи. Заместителю Премьер-министра поручено вести порядок предоставления начинающим аграриям по одному из каждых десяти гектаров посевных площадей. Лимонводство, кролиководство, птицеводство, пчеловодство – те, кто заинтересуется этими направлениями, будут выделяться банковские кредиты.

На совещании обсуждены и вопросы организации содержательного досуга молодых узбекистанцев, создания необходимых условий для развития их способностей.

Лилия РУСАНОВА

## ШАХ И МАТ



# Тренажер для мозга

Мальчишки и девочки сосредоточенно склонились над досками, тщательно обдумывают следующий ход. Это не просто фигуры на черно-белом поле – это стратегия и тактика, умение анализировать, быть внимательным, сосредоточенным. Недаром шахматы, которые называют «тренажером для мозга», включены в школьную программу многих стран.

В Узбекистане тоже немало поклонников интеллектуальной игры. Благодаря принятому в январе постановлению «О мерах по дальнейшему развитию и популяризации шахмат, а также совершенствованию системы подготовки шахматистов» их станет еще больше. Так, планируется реализовать проект «Шахматы в школе», цель которого – обучение учащихся начальных классов, проведение турниров среди ребят. Особое внимание уделяется выявлению талантливых мальчиков и девочек, которые смогут поступить в специализирован-



ную школу и заниматься этим интеллектуальным видом спорта профессионально. Предусмотрено оказание поддержки шахматистам с особыми нуждами: в этих целях в структуре Национальной паралимпийской ассоциации Узбекистана создается отдельное подразделение.

Чем раньше ребенок приобщается к магии черно-белых клеток, тем лучше. Шахматы в школах, организация турниров, помощь со стороны государства – все это будет способствовать появлению в нашей стране целой плеяды одаренных игроков мирового уровня.

Элина ЮРЭ

## МЫСЛИ ВСЛУХ

Оглядываясь назад и понимаю: мне и многим другим молодым людям такой непростой 2020 год дал возможность «прокачать» знания и навыки, освоить новое, сделать то, на что раньше не хватало времени.



# СТАТЬ ЛУЧШЕЙ ВЕРСИЕЙ СЕБЯ

Во время периода самоизоляции в свободном доступе появилось много онлайн-курсов, тренингов и мастер-классов – контент, который до этого был платным. Фотографы нашли новую технику съемки – по видеосвязи, музеи начали активно внедрять виртуальные экскурсии, театры тоже проводили спектакли в Сети. Народ не унывал и находил разные способы для самосовершенствования и развития.

В это непростое время я стала много думать. Обычно, если размышляю несколько часов, появляется отличная «рыба» для материала. Превращаю мысли пар-тройку дней – возникают интересные идеи для творчества. А вот если думаю думать на протяжении двух месяцев и делать SWOT-анализ (исследование сильных и слабых сторон) в режиме нон-стоп, то можно добраться до самых отдаленных уголков сознания...

Еще поняла, что постоянное общение с людьми и командная работа

на самом деле переоценены. При усердии, большом желании и капле таланта ты сам добьешься всего, что запланировал. И фотосессию проведешь, и видео снимешь, и проекты запустишь, и чемоданы с оборудованием в одиночку по лестнице поднимешь. Правда, придется делать это понемногу и в несколько подходов, зато изучишь каждую ступеньку и выйдишь на ней, поймешь, как держать груз удобней. Так приобретается опыт.

Кроме того, я научилась оправдывать собственные ожидания, то есть добиваться поставленной цели, быть терпеливой и выдержанной. Отточила кулинарное мастерство: теперь не составляет труда за три часа приготовить мясо в вине и испечь кекс. Фото, видео, игра на фортепиано, рисование – «прокачала» творческие навыки и в этих сферах.

Пока мир борется с пандемией, можно не поддаваться панике и постараться стать лучшей версией самих себя.

Малика КАМИЛОВА



### Новости образования

**Знай наших!**  
Двое талантливых учащихся из Узбекистана стали обладателями грантов на обучение в ведущих вузах США.



Воспитанник Президентской школы в Хиве Кодирбек Отаев (на фото) поступил в Университет Ксавье. Вуз находится в Цинциннати (штат Огайо) и занимает 330-е место в рейтинге Times Higher Education.

Радостная новость пришла и из Чустского района Наманганской области. Ученик 11-го класса Государственной специализированной школы-интерната №7 Сарварбек Усманов принят в университет штата Орегон и университет Южной Флориды по направлению «компьютерные технологии». Также юноша выиграл грант на обучение в размере 40 тысяч долларов.

### Что должны уметь ученики?

Министерство народного образования в партнерстве с Агентством США по международному развитию (USAID) внедряет новые стандарты успеваемости школьников.

Определение четких ожиданий для каждого класса в отношении того, что ученики должны знать и делать, позволит МНО разработать соответствующие программы, учебники и руководства для педагогов. Это должно способствовать построению качественной системы образования, выпускники которой обладают критическим мышлением, знаниями и навыками, необходимыми для достижения успеха в условиях экономики Узбекистана.

Проект стандартов охватывает предметы «родной (узбекский) язык» и «математика» (1–4-е классы), а также «информатика и информационные технологии» (1–11-е классы).

### Танец как наука

С 2021/2022 учебного года начнутся занятия в Ургенчском филиале Государственной академии хореографии Узбекистана.



Новый вуз создан для дальнейшего совершенствования системы подготовки квалифицированных специалистов в области национального танца. В филиале открывается отделение по развитию «Лазги», которое займется созданием «золотого фонда» образов исполнения знаменитого хорезмского танца. Появятся посвященная ему тематическая экспозиция, фонотека, галерея образов одежды, выставочный зал и арт-кафе. Также начнет действовать детский любительский театр-студия «Лазги».

### Дорогу талантам!

В Джизаке открылась Школа молодых журналистов.

Проект рассчитан на восемь месяцев и направлен на содействие юношам и девушкам, интересующимся работой в массмедиа, а также на создание резерва кадров для СМИ.

В школу отобраны 30 молодых людей в возрасте до 30 лет. Опытные специалисты будут проводить занятия и мастер-классы по таким направлениям, как пресса, телевидение, радио, интернет- и фотожурналистика.

Программа реализуется на грантовые средства Общественного фонда по поддержке ННО и других институтов гражданского общества при Олий Мажлисе.

### IT-инкубаторы

открылись в Андижанском машиностроительном институте и Андижанском институте сельского хозяйства и агротехнологий.



Здесь просторные лекционные залы и лаборатории, современное оборудование, презентационные доски. Все это позволит заниматься мониторингом и отбором бизнес-идей и инновационных разработок студентов местных вузов и молодых ученых. На базе центра будут действовать интерактивные IT-курсы. Предусмотрено оказание консалтинговых услуг начинающим предпринимателям, проведение научных исследований.

РАЗГОВОР О ВАЖНОМ

# «Перед зеркалом души»

## Час, вливающий годы

– Зульфия Хаитовна! Газели Навои тяжело запоминаются, – ребята, которые обычно выучивают стихотворения за десять минут, жалуются учительнице, кавалеру ордена «Мехнат шухрати», и в ответ слышат совет великого гуманиста:

*Терпенье одолеет все дела,  
А спешка лишь к беде всегда вела.*  
Зульфия Абдураимова, отличник народного образования, отмеченный знаком «Халк таълими фидойиси», объясняет ученикам, что произведение Алишера Навои требуют особого труда, однако результат того стоит.



– Это не простая преграда в изучении наизусть, – делится с читателями нашей газеты педагог с 46-летним стажем. – Стимул для мысли, причина более детально изучить текст. Зато усилия окупаются сторицей: слово Навои врезается в память надолго. В Год поддержки молодежи и укрепления здоровья населения не побоюсь назвать интеллектуальные усилия терапией для здорового духа.

– Постановление: «О широком праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя Алишера Навои» – ориентир в грамотном подходе к наследию классика восточной литературы. Какие задачи в этой связи стоят перед школой?

– Я понимаю их так: не расщеплять творчество гения на темы, не раскладывать по полочкам, не наводить «хрестоматийный глянец», с детских лет пробуждать любовь к национальной культуре. Выдвинут принцип «От национального возрождения – к национальному прогрессу», в соответствии с которым и должна строиться образовательно-воспитательная работа.

Алишер Навои не должен «приходить» к учащимся лишь в день своего рождения или когда его изучение обозначено школьной программой. Праздничные мероприятия, проводимые по сценариям 10–20-летней давности, ведут к пресловутой «галочке» и дежурному восприятию события. А вот дозированная ненавязчивая «подпитка мудростью веков», осуществляемая непрерывно, системно, вызывает положительный эффект.

В произведениях Царя поэтов есть высказывания по поводу разных жизненных ситуаций. Навои говорит о бережном отношении к времени: «Когда тебе исполнить нужно дело, смотри, чтоб время зря не пролетело». Творивший во имя людей осуждает вредные привычки: «А пьянство неумеренное – тьма, Гасящая бессмертный свет ума». Мне, как словеснику, особенно близок такой бейт:

*Будь благороден, пишущий! Пиши  
Правдиво перед зеркалом души.*

Высказывание в полной мере относится и к говорящему. В нашем случае – к учителю. Ведь именно от него зависит отношение к такому бесценному и необъятному пласту культуры, как творчество Навои.

Что касается достойной встречи 580-летия поэта-гуманиста, мы с ребятами остановились на вечер газелей. Были конкурсы знатоков, викторины, литературно-музыкальные композиции, инсценировки, стихотворные эстафеты. Главный вопрос: почему столько лет не ослабевает интерес к наследию великого

*Кто истину тебе внушил  
хоть буквою одной,  
Не оплатит его трудов  
и золотой казной!*

В настоящее время многое делается для повышения статуса педагогов, раскрытия их потенциала, социальной защищенности. Завет великого предка претворяется в жизнь. Вспомнила его, когда была удостоена чести вместе с коллегами из разных областей Узбекистана, известными литераторами, ветеранами открыть Chinobod Plaza, современный санаторий, построенный с учетом мировых стандартов. Мы стали его первыми гостями.

– Будучи участницей встречи Президента с учителями и наставниками перед их профессиональным праздником, вы впоследствии не раз цитировали заповишие в душу слова главы государства. Ваши ученики хорошо знакомы с высказыванием, в котором определяется цель общего среднего образования...


– «Новый Узбекистан начинается с порога школы» – разве этот ориентир может оставить равнодушным педагога, выбравшего свой путь по призванию? Он постарается работать еще лучше, с большей отдачей. Будет делать все, чтобы ученики осознали, какой фундамент знаний, культуры, человечности закладывает школа. Мы ответственные за то, каким подойдет наш воспитанник к самостоятельной жизни, какие положительные качества приобретет.

К сожалению, нередко приходится слышать: «Дело учителя – давать знания по предмету, дело семьи – воспитание». Такое разделение ролей ведет к некоторому противостоянию. Случись огрехи в воспитании, учебное заведение винит семью, и наоборот. Испокон веков наша работа называлась воспитательно-образовательной. И нет ничего действительнее личного примера. Учитель видит свое отражение в учениках. Как говорится, что посеешь, то и пожнешь.

Национальная программа развития и поддержки культуры чтения в 2020–2025 годах, ставя перед учителями-словесниками особые задачи, не умаляет и роли остальных предметников. Правда, опять высказываются спорные точки зрения. Педагоги кивают на родителей, те считают это прямой обязанностью школы. А нужен тандем.

Легче всего махнуть рукой на нечитающего ребенка: «Яблочко недалеко падает. В доме нет ни одной книги», нежелая пробудить у него интерес к художественной литературе. Не люблю формулировку «заставить». «Двойка» здесь тоже не помощница. Скорее, озлобляющий фактор. Правильные определения – «заинтересовать», «приобщить». Как это сделать, зависит от мастерства наставника, силы его воздействия, авторитета. Литератор не имеет права быть «информационно привязанным» к учебнику. Из множества источников выбрать самое-самое, чтобы

– Еще бы! Даже маленькие тайны раскрываю. Например, как мама, Ризван Маджидова-Искандарова, заслуженный учитель Узбекистана, пыталась убедить, что семикласснице, которая обучается на узбекском языке, рано читать «Консуэло». Не скрываю особой любви к поэзии. Когда



класс заслушался, принял, захотел узнать еще больше, – вот его задача. Стремление учителя к совместным открытиям всегда принимается с благодарностью и нацеливает учащихся на самостоятельный поиск.

Ребята должны видеть: чтение имеет практическую ценность. Время сейчас такое, когда подрастающее поколение стало задумываться, зачем ему те или иные знания, пригодятся ли в жизни или осудят мертвым грузом. Не могу снова не процитировать Алишера Навои: «Книга – учитель без платы и благодарности. Каждый миг дарит она тебе открытия мудрости». Этим откровением может быть слово, выразительное средство языка, поступок, деталь... Главное, «вкусно» подать и отве-



тить на вопрос «зачем?». Наставник не только передает знания, но и сам учится вместе с ребятами. Каждый день. Пока ты учишься, ты учишь.

– Говорите со школьниками о своих литературных предпочтениях?

*«Новый Узбекистан начинается с порога школы» – разве этот ориентир может оставить равнодушным педагога, выбравшего свой путь по призванию? Он постарается работать еще лучше, с большей отдачей. Будет делать все, чтобы ученики осознали, какой фундамент знаний, культуры, человечности закладывает школа.*

и каждый хочет задать вопрос или ответить. По ним сверяла темп речи.

– Как вы считаете, онлайн-обучение способно вытеснить традиционное?

– Я за учебный процесс вживую, глаза в глаза. Онлайн-урок – некий усредненный вариант занятия, когда учитель только объясняет материал. Даже вопросы, которые он задает в процессе, по большей части риторические. Но в критической ситуации такой формат обучения стал нашим спасением.

В школе, даже если предстоит трижды обратиться к одной теме в параллели классов, занятия будут разными. В одном случае на объяснение понадобится больше времени, в другом – меньше. Где-то пошутить, где-то к месту вспомнить афоризм... Живой урок – целая гамма чувств, которая возникает в результате общения с учениками. Ведь все дети – личности, которые так отличаются друг от друга.

– Вы автор учебных и учебных пособий для классов с узбекским языком обучения. И в настоящее время совмещаете преподавание русского языка и литературы в школе № 250 Юнусабадского района столицы с созданием учебников.

– Разрабатывается новая национальная образовательная программа. Кардинально меняется методика преподавания русского языка. В классах с узбекским языком обучения он будет преподаваться как иностранный. На примере более простых текстов и синтаксических конструкций упор делается на разговорную речь. Что толку, скажем, от зазубренных сложноподчиненных предложений с двумя и более придаточными, если ученик испытывает трудности в повседневном общении?! С особой тщательностью подбираем тексты и задания, так как два часа русского в неделю для изучения языка очень мало. Пытаемся повысить продуктивность занятий за счет унификации речевого материала. Кроме того, QR-код открывает доступ к любой теме: можно в аудиозаписи прослушивать изучаемые конструкции и дома отработать произношение.

– Что помогает сохранять энергию и бодрость при огромной интеллектуальной нагрузке?

– Поддержка семьи, любовь к детям, желание делиться знаниями. Мой простой, но такой действенный девиз: «Зульфия Хаитовна и труд вместе идут». Желая такого плодотворного труда, который идет от сердца, каждому. Особенно молодым, выбирающим свою дорогу в жизни. Пусть она будет ровной, долгой, дарящей удивительные открытия!

Беседовала Полина ЛЮДИНИНА

Любим мы, одиннадцатиклассники, первый урок в пятницу. Классный час. Некоторые ребята относятся к нему скептически: «Опять «разбор полетов» будет. Кто что натворил, кому по какому предмету подтянуться... Всегда одно и то же».

У нас не так. Рабия Абдукадыровна Джаларова, классный руководитель, сама в курсе всех новостей и учеников причащает интересоваться, что произошло в стране и за рубежом. А еще на классные часы приглашает гостей: писателей, поэтов, ученых, спортсменов...

Недавно встречались с журналистом Аблаем Камаловым, который долгое время работал в военной газете. Кто как, а я ждал этой беседы с нетерпением, потому что сам хочу стать военным служащим. Устроил подполковник резерва настоящей мозговой штурм. Из ответов одноклассников вырисовывалась личность защитника Родины.

Все вместе пришли к выводу: главное качество – патриотизм, такая любовь к своей стране, когда готов отдать за нее жизнь в любую минуту. Пример беззаветного служения народу – подвиг лейтенанта Бабуржона Ганиева, выпускника Специального факультета Ташкентского университета информационных технологий. Кстати, в настоящее время факультет преобразован в Военный институт информационно-коммуникационных технологий.

Потрясли слова убитого озем, но не сплотившего отца героя: «Враги думали, что смогу нас испугать. Второй сын встанет на место первого». Урок пролетел незаметно. Слушали о людях, их поступках, вспоминали ветеранов...


Я много размышлял над рассказами журналиста. Желание служить своей стране стало еще сильнее.

Самандар ВАХИДОВ, школа №257, г.Ташкент

### МИР ЗА ОКНОМ

## Кто это поет?

Пандемия Covid-19 изменила многое, в том числе заставила внимательнее относиться к природе



Когда на улицах стало непривычно тихо, люди вдруг отчетливо услышали тех, чьи голоса обычно тонули в повседневном шуме. Птицы! Почему мы раньше их не замечали?

Одной из тех, кто стал внимательно прислушиваться и приглядываться к пернатым, оказалась и начинающий фотограф Кристина Говорухина. Выяснилось, что бердвотчинг, или любительская орнитология, – весьма интересное занятие. Но...

«Увлеклась этим несколько месяцев назад и столкнулась с проблемой: птиц много, запомнить всех сложно, – рассказывает девушка. – А пока пытаешься заглянуть «Желтые полоски на крыльях – кто это?», их обладатель улетает. Сделать фото, чтобы потом спросить у знатоков, тоже не всегда получается. Недавно придумала, как помочь себе и другим новичкам: завела инстаграм-аккаунт о городских птицах».

Сейчас на страничке instagram.com/citizenbirds опубликованы фотографии больше 60 видов пернатых, но планируется охватить около ста. Все посты содержат аудиозаписи: можно услышать, как «разговаривает» грач, черный стриж, горlinka, синичка...

«Гуляя по городу, я использую аудио, чтобы точно знать, какую птичку встретила: иногда детали рассмотреть сложно», – поясняет Кристина. И приглашает всех ценителей природы присоединиться к международному движению бердвотчеров – орнитологов-любителей.

Алина ЯГОДИНА





## «Зеленая» энергия

В Южирчирикском районе Ташкентской области началось строительство малой солнечной фотозлектроэлектрической станции мощностью 40 кВт.

Проект реализуется Министерством энергетики и АО «Национальные электрические сети Узбекистана» при грантовой поддержке Корейского энергетического агентства (KEA).

Электростанция будет расположена на территории населенного пункта Нурли замин. Введение ее в строй станет важным шагом на пути к активному использованию в нашей стране солнечной энергии – чистой, неиссякаемой и сравнительно недорогой.



## Береги воду!

Запущено мобильное приложение «Сувни асра» для устранения аварий.

Программа, созданная по инициативе АО «Усувтаъминот», призвана повысить оперативность отклика на проблемы с водоснабжением. Пользователь может сфотографировать место аварии и отправить снимок при помощи приложения, после чего специалисты придут на место происшествия, используя систему GPS.

«Сувни асра» доступна для скачивания на платформах Play Market и Apple Store.

## В помощь фермерам

Профессора Университета Инха в Ташкенте представили «умные» агрометеорологические станции.



Разработка Джасурбека Ходжаева и Сарвара Абдуллаева позволяет вести онлайн-мониторинг и анализ различных параметров окружающей среды. Метеостанция «OXUS-2» в автоматическом режиме измеряет температуру воздуха, относительную влажность, загрязненность, скорость и направление ветра, атмосферное давление, влажность почвы и многое другое. Система позволяет с помощью sms-информирования оповестить агрономов о распространении болезней или вредителей.

Уже запущено шесть агрометеостанций, а до конца этого года запланирована установка еще девяти для фермеров в областях Ферганской долины.

## Спасем природу вместе

ООН запустила кампанию для детей по борьбе с изменением климата.

В новой программе задействованы восемь анимированных персонажей – экологические «супергерои». У каждого из них – эксперта по энергетике, переработке отходов и других – есть загружаемый контент, в том числе задания, которые должен выполнять ребенок с помощью взрослого. Цель – вовлечь детей и их родителей в захватывающие миссии на такие темы, как сокращение количества одноразового пластика, экономия энергии и воды.

Кампания запущена в социальных сетях ООН и ориентирована на мальчиков и девочек до 12 лет.

# ПОРА ВЫНОСИТЬ СОР ИЗ ИЗБЫ, или Вторая жизнь отходов



## ЭКОВОСПИТАНИЕ С ПЕЛЕНОК

Помимо практических шагов в этом направлении все большее значение приобретает экологическое образование. Взрослых уже трудно переучивать, а вот дети впитывают новые знания как губка. В юном возрасте легче всего заложить правильную модель мышления и поведения. С этой целью Министерство дошкольного образования совместно с Hashar Week и британско-узбекской компанией по устойчивому развитию SVD Advisory запустили программу по внедрению экологического воспитания в детских садах.

О чем именно идет речь? Проект ориентирован на ребят от трех до семи лет, для которых разработана специальная дидактическая игра. Цель – научить сортировать ТБО. Дети раскладывают карточки, на которых изображены разные виды отходов, по разноцветным домикам-урнам и специальным пакетам. Мальчикам и девочкам объясняют, что мусор никуда не исчезает и его нельзя выбрасывать где попало, в том числе на улице или из окна автомобиля. Полученные знания и навыки малыши смогут применять как в детском саду, где установят настоящие контейнеры, так и дома.

Для участия отобрано 13 столичных ДОО, 50 педагогов прошли обучение. Всего задействовано свыше четырех тысяч дошколят, привлечены к работе и их родители. В дальнейшем проект будет внедрен по всей республике.

Зеленый – для «органики», желтый – для пластика, металла и бумаги, красный – для всего остального. Именно в эти три цвета окрашены контейнеры для раздельного сбора твердых бытовых отходов (ТБО), которые все чаще можно увидеть в Ташкенте и других городах. Своего рода экологический «светофор», призванный научить нас бережно относиться к окружающей среде.

Вот только стоит заглянуть в одну из таких емкостей, как становится понятно: все лежит вперемешку. Как правило, сортировкой отходов на мусоросборочных площадках, расположенных возле многоквартирных домов, занимаются трудоустроенные там люди. Складывают отдельно пластик, бумагу, остатки еды, что становится для них дополнительным источником дохода. Сами жильцы обычно приносят «общий» пакет с мусором и не глядя бросают в первый попавшийся контейнер (а то и просто в ближайший арык). То же самое происходит и с разноцветными урнами, установленными в парках, на улицах, возле торговых центров.

То есть мало организовать специальные места для раздельного сбора ТБО – нужно изменить сознание людей, сформировать грамотное и осознанное отношение к проблеме бытовых отходов.

## ПЛАСТИК, МЕТАЛЛ, БУМАГА...

В декабре 2019 года при участии ПРООН в Яккасарайском районе Ташкента стартовал первый пилотный проект по сортировке ТБО. Более 200 домохозяйств по улице Саади Сирождиддинова получили по три пластиковых контейнера для раздельного сбора перерабатываемых (пластик, металл и бумага), неперабатываемых и разлагаемых отходов. Каждый вид в определенный день недели вывозила специальная машина. Эксперимент признан удачным: даже после окончания проекта многие жители продолжили сортировать мусор.

Успешной оказалась и еще одна инициатива – Hashar Week, направленная на популяризацию раздельного сбора. Все началось с создания специальных пунктов, где принимали только отсортированные бытовые отходы. Сегодня Hashar Week – это целый комплекс проектов, нацеленных на разные аудитории. Например, программа «Z avlod» («Поколение Z») ориентирована на детей. В ее рамках более чем в ста школах Узбекистана проведены экологические уроки на тему вторсырья. Во всех этих учебных заведениях внедрена система раздельного сбора мусора.



Инициатива «Зеленый офис» предусматривает то же самое в разных компаниях, учреждениях и призвана повысить ответственность бизнеса

в вопросах экологии. «Зеленый дом» нацелен на организацию сортировки в столичных новостройках. Хорошим стимулом служат карты лояльности, благодаря которым можно получить разные бонусы и призы.

«Мы пропагандируем идею о том, что чисто не там, где убирают, а там, где не сорят. Поэтому каждый должен взять на себя ответственность, а не возлагать ее на государственные органы», – отмечает автор проекта Hashar Week Суна Парк.

## РАЗДЕЛЯЙ И ПОМОГАЙ!

Конечно, государство не может остаться в стороне от столь важной проблемы. В декабре прошлого года Президент подписал постановление «О мерах по совершенствованию деятельности в сфере обращения с бытовыми и строительными отходами в городе Ташкенте». Документом предусмотрено повышение уровня переработки ТБО с сегодняшних 8 процентов до 30. Для этого с 1 марта 2021 года в столице начнут поэтапно внедрять систему раздельного сбора вторсырья. На первом этапе программа охватит махалли, перечень которых определит хокимият Ташкента. Жителей бесплатно обеспечат цветными контейнерами или перерабатываемыми пакетами. С 2023 года системой должны быть охвачены все районы столицы. Планируется также установить пониженные тарифы на вывоз мусора с учетом отходов, отсортированных потребителями.

А как быть, например, с батарейками? В них содержатся токсичные вещества (свинец, кадмий, ртуть, цинк и другие), поэтому просто выбрасывать использованные элементы нельзя. Эта проблема тоже не остается без внимания. По инициативе Госкомэкологии ведется установка специальных контейнеров – в первую очередь, в пунктах приема отходов. Необычные емкости, по форме и дизайну напоминающие все те же батарейки, можно увидеть в Ташкенте и Ферганской области. Сегодня в столице доступны 530 контейнеров «Махсустан» и 171 – частных компаний по санитарной очистке. Установка продолжается и охватит все действующие пункты приема отходов.



– С малых лет каждый человек должен знать, что нельзя загрязнять планету, – отметила на презентации программы министр дошкольного образования Агрипина Шин. – В разработке дидактической игры участвовали психологи, педагоги, иллюстраторы. В результате удалось создать интерактивную методичку, которая поможет воспитать в детях любовь к природе, стремление заботиться о ней. Дошкольные организации – первая ступень всей цепочки непрерывного образования, ее фундамент, где закладываются базовые представления об окружающем мире. Поэтому так важно, чтобы эти знания были правильными и приносили пользу. Только общими усилиями взрослых и детей мы сделаем мир лучше. И чище.

Елена КАЛИНИНА



MUSHOHADA

# TO'YDAGI ISROFGARCHILIK O'ZIMIZGA AZIYAT YETKAZADI

Piru badavlatlarimiz "Topganing to'yg'a buyursin!", deb duo qiladi. Buning zamirida uyingda xursandchilik hukm sursin, bola-chaqang ko'p bo'lsin, degan ezgu istak mujassam. Zinhor bor budingni to'yg'a sarfla, degan da'vat emas!

Afsuski, so'nggi yillarda ortiqcha isrofgarchilikka yo'l qo'yish, kimo'zarga berilish natijasida xonadondagi eng go'zal, fayzli kun ortidan tinch-totuv va baxtli hayot murakkabliklar domiga tushib qolmoqda. Kelin olaman, qiz chiqaraman, degan ezgu maqsad bilan emas, "To'y qilishim kerak!" degan tashvish bilan yashovchilar ko'paydi. Bunday holatning jamiyatda ildiz o'tishi, eng avvalo, ilmsizlik, ma'naviyatning darz ketishiga va kelajak avlod ta'lim-tarbiyasiga ham ta'sir qilyapti. To'y va marosimlar jiddiy ijtimoiy muammoga aylandi. To'ylar o'tkazish borasida shariatimizda qanday tartib-an'ana yoki ko'rsatmalar mavjudligi, umuman, to'yni qanday tushunishimiz va o'tkazishimiz kerakligi to'g'risida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi katta o'qituvchisi Burxoniddin Ahmedovning fikrlari bilan qiziqdik.

– Dinimizda to'y marosimlariga tavsiyalar va Payg'ambarimiz (s.a.v.) ning o'z ko'rsatmalari bor, – deydi Burxoniddin Ahmedov. – Ya'ni inson farzandlari – o'g'il-qizlarining juftlashayotganini odamlarga bildirib qo'yish ma'nosida ixcham to'y qilishi ko'rsatilgan. Bundan maqsad bir xonadondan chiqqan qizni yangi uyga xush kuzatishdir. El-yurtga ehson dasturxonini yozib va to'y qilib, ovoz chiqarib uzatishni Payg'ambarimiz (s.a.v.) tavsiya qilganlar. Chunki "Xonadoningizda qizingiz voyaga yetayotgan edi", deya ezgu maqsadda sovcilikka keluvchilarga ham bu o'ziga xos xabar bo'ladi.

Qiz bola turmushga chiqayotgan paytda ehson dasturxonini Payg'ambarimiz (s.a.v.) bevosita erkakning, ya'ni turmush qurayotgan yigitning zimmasiga yuklanganlar. Qizlari Fotima onamizni Ali (r.a.)ga uzatayotgan vaqtda uning uylanishga imkoniyati bo'lmagan. Shunda Payg'ambarimiz (s.a.v.) mahur uchun imom Ali (r.a.)dan qizlariga mablag' so'radilar. Hatto temir uzuk bo'lsa ham topa olasanmi, dedilar va qiladigan ehsonini Ali (r.a.)ga tavsiya qildilar. Shunday qilib, Ali (r.a.) atrofidagi sahobalarning yordami bilan ixcham ehson qilib, Fotima onamizni boshqa bir xonadonga nikohlab olib ketdilar.

Bunday misollar juda ko'p. Masalan, Rasululloh (s.a.v.) bir kuni ko'chada ketayotganlarida o'sha davrning eng ko'zga ko'ringan sar-moyadorlaridan biri Abdurahmonning ustida ko'rkam liboslarini ko'rib qoladilar va undan "Uylandingmi?", deb so'raydilar. Abdurahmon: "Ha, uylandim", deydi. Payg'ambarimiz (s.a.v.) "Uylansang, bildirib qo'yging-da", deb ta'kidlaganlar.

Buni shunday izohlash mumkin, o'sha davrlarda ham to'y va boshqa marosimlarni o'tkazish urf bo'lgan. Lekin shu darajada ixcham bo'lganki, bu Abdurahmonning uylanganini Rasululloh (s.a.v.) bil-may qolganidan ham ma'lum.

Nikoh qaydnomasi ikki juftlik, ya'ni erkak va ayolning birgalikda tur-mush qurishga qo'yadigan ilk qadami bo'lsa, albatta, unga guvohlar bo'lishi uchun ham ixcham bir to'y marosimi qilinadi. Buni yuqorida keltirgan misollarimiz tasdiqlab turibdi.

## VAQTNING HAM UVOLI BOR

Xalqning guvohligida kichik to'y marosimlarini o'tkazish yaxshi.

Ammo bugungi kunda to'y marosimlari bahona qilib, isrofgarchilik, dabdabozlik va kimo'zarlik holatlari tobora ortib ketdi.

Qur'oni karimda Alloh taolo insonlarga marhamat qilib, shunday deydi: "Yenglar, ichinglar lekin isrof qilmanglar. Alloh isrof qilguvchilarni yomon ko'radi" (A'rof, 21).

Oyat sharhiga mufasssirlar ko'zi bilan qaraydigan bo'lsak, Alloh buyuryapti: "Yegin, ichgin, isrof qilmagin", deb. Bu so'zning ortidan uni yumshatadigan boshqa so'z keltirmadi. Bu esa berilgan tavsiya va maslahatlar bajarilishi lozimligini anglatadi.

Bugun ushbu nasihatga rioya qilmasligimiz oqibatida jamiyatimizda qanday muammolar yuzaga kelayotganiga barchamiz guvoh bo'lib turibmiz. Undan kelib chiqayotgan zararlardan faqat va faqat o'zimiz, xalqimiz aziyat chekmoqda.

To'yda bezatilayotgan dasturxonlarda nozu ne'matlar, ayniqsa, xotin-qizlar uchun mo'ljallangan kechki bazmlarda tortilayotgan taomlarning o'ndan bir qismi ham yeyilmaydi, isrof bo'ladi. Isrofgarchilik eng yomon gunoh hisoblanadi. Alloh taolo insonga moddiyati xohlama yeb, xohlama isrof qilishi uchun bermaydi. Moddiyati bizga omonat. Kimlarningdir rizq-nasibasini to'kayotganimiz bir tomoni bo'lsa, ikkinchisi, bu nozu ne'matlar ham aslida bir shaxsiyatdir. Ertaga bular ham da'vo qiladi. "Men insonlar uchun sen tomoningdan yemak uchun yaratildim. Lekin bular meni zoye qildi" demaydimi?!

Rivoyatlarda keltiriladiki, qiyomat kunida bir qo'y bo'rilar to'dasi ichida yurar ekan. Shunda Alloh taolo undan so'rar ekan: "Ey qo'y, bo'rilar ichida nima qilib yuribsan?".

Albatta, o'sha joyda ham qo'y bo'rilar ichida xavotirda bo'larkan. U aytar ekanki: "Yo Alloh, sen meni bir kishiga musk qilib bergan eding. U meni asrab-avaylamadi. Meni zoye qildi. Shuning uchun men buyimni adashtirib qo'ydim. Mana bu-jonim bo'rilar ichida xavotirda qo'rqib yuribman", deya egasi ustidan shikoyat qilarkan.

Alloh taolo qo'ydan nima xohlay-san desa, qo'y egamdan haq xohlayman, deb javob qaytararkan. Hatto qo'y ham o'z joyini o'zgartirib, yo'qotgani uchun qiyomat kunida egasidan haq talab qilishi mumkin ekan...

Shunday ekan, bugungi to'y-larimizda isrof qilinayotgan har bir

luqma taom uni isrof qilayotganlar-dan, albatta, qiyomat kunida haq so'raydi. Bu moddiy isrofgarchilik. Ba'zi insonlar "O'zinniki, topdim, yedirdim, yeyishmadi, nima qilay?", deb o'zlarini oqlamoqchi bo'ladi. Bunga asos va haqlari yo'q.

Isrofning yana ham jiddiyi – vaqtning zoe ketganidir. Ertaga bulaning ham savol-javobi, uvoli, hisob-kitobi bor.

Qiyomat kunida Alloh tomonidan inson uchun berilgan har bir lah-zasi so'ralarkan. Alloh taolo bandan-qing qadami jannat yoki do'zaxga o'tishidan oldin so'raladigan o'rta narsadan biri sifatida vaqtni sanamadmidi? Banda o'z vaqtini nimaga ishlatdi? Nega o'sha dabdabali to'yg'a, to'y uchun pul topishga ketgan kunlar va oylarni o'zining ma'naviyatiga, imon-e'tiqodiga, far-zandlarining ta'lim-tarbiyasiga, jami-yatning taraqqiyotiga yo'naltirmadi?!

Dabdabali to'y qilayotganlar-dan ba'zan farzandi ta'lim-tarbiyasi uchun mablag' so'ralganda e'tiroz bildirishadi. Axir yillar davomida ne-ne mashaqqatlar bilan topilgan mablag'ni bir kunlik orzu-havas uchun ishlatgandan ko'ra, bir umrlik ma'naviyat, ma'rifat yo'lida sarflash to'g'ri tanlov-ku! Bu mablag'larni odamlar farzandlarining o'qishiga, tarbiyasiga yo'naltirganida edi, o'zining ertangi kuni bo'lgan o'g'il-qizlaridan qaytadigan izzat-hurmatga musharraf bo'lardi. Ham ota-onalik vazifasini, ham jamiyat oldidagi burchini bajargan, Alloh hu-zurida yuzini yorug' qilgan bo'lardi.

Dinimizda biror-bir salbiy ho-latga cheklov qo'yilmadi, albatta, bunga rioya qilishimiz kerak. Taqiq-langan jihatlarni eshitib, ko'ra-bila turib, o'z bilganimizdan qolmasak, yanada og'irroq gunohga yo'l och-gan bo'lamiz.

Bir ustozning ibratli gapini eshi-tib qoldim. Xalqqa osh berib, to'y qilayotganida ba'zi kishilar dastur-xonga qazi-qarta qo'yishni tavsiya qilishibdi. Ustoz bunga rad javobini beribdi. "Mening imkoniyatim bun-day osh qilishga yetmaydi", desa haligi kishilar "Unda biz yordam beramiz", deya ko'magini tavsiya qilibdi. Shunda ustoz, "Siz ham yordam qilmang, chunki elga bu osh dasturxonini men yozayman. Ertaga shu domla qazi-qartali osh qilibdi-ku, deb boshqalarga ham malol bo'lmasin, og'irimiz tushib qoladi", deya ta'kidlagan ekan.

Albatta, jamiyatimizda bunday insonlarga ehtiyoj bor. Ularning

xalq manfaatini o'ylab aytgan har bir gap, og'irini yengil qilishi bora-sidagi fikrlari hammamiz uchun ibratdir.

## PESHVOLAR XALQ MANFAATINI KO'ZLAYDI

To'y-hashamlar borasida zi-yolilarimiz tomonidan ilgari su-riylayotgan fikrlar, hukumatimiz qabul qilayotgan tartib-taomillar el-yurtimiz farovonligi, fuqarolar-imizning manfaati uchun xizmat qiladi. Qo'yilayotgan talablar xalq-imizning ichidagi dardini, muammo-sini o'rgangan holda ishlab chiqil-yapti. Xalq vakillari hisoblangan deputatlar, MFY raislari va ja-moatchilikning fikr va tavsiyasiga binoan yondashilyapti.

Dinimizda hukumat o'rnatgan yoki umumbashariy qoidalariga rioya qilish shariy burch, deb bel-gilangan. Xalq vakillari hisoblan-gan rahbarlar tomonidan fuqarolar foydasi, manfaati uchun bir taklif berilsa, unga amal qilish kerak. Lekin ba'zi kishilar tomonidan bu ko'rsatmalarga "ko'z yumib ke-tish", e'tiborsizlik yoki loqaydlik, o'zibilammonlik holatlari ham uch-rab turibdi.

Jamiyat peshvolari bir masala-da kelishsalar, xalqning manfaati uchun bo'ladi. Unga e'tiborsiz mu-nosabatda bo'lmaslik lozim. Nega-ki, dinimizda qaror qilishda ijmo, ya'ni soha mutaxassislari yig'ilib, jamiyatdagi bir muammoga yechim izlashda yaxlit bir fikrga kelish, deyilgan masala bor. Bularga ham amal qilish talab etiladi. Aks holda kishi o'zi bilib yoki bilmagan holda, avvalo, o'zini, undan so'ng boshqa-larni ham qadrsizlantirib qo'yishi mumkin.

Keng jamoatchilik vakillari, ziyolilarimiz fikr va takliflari o'rganilib, fuqarolarimizga har to-monlama qulay sharoitlarni yara-tish maqsad qilingan ekan bunga rioya qilmaslikka yoki e'tiborsiz bo'lishga hech kimning haqqi yo'q. Bu yerda shaxsiy manfaat ko'zlanmayapti. Shu xalq, Vatan taraqqiyoti, o'g'il-qizlarning kela-jagi o'ylanyapti.

## YUZ YILLIK DARD

Butun dunyo ilm-faniga o'z his-sasini qo'shgan ajdodlarimiz inson-larga zarar keltirayotgan juda ko'p ijtimoiy muammolarni ta'kidlagan.

*Tahririyatdan: Pandemiya sababli mamlakatimizda e'lon qilingan karantin davrida to'y va tadbirlarni o'tkazishga taqiqqlar belgilandi. Xabarlariga ko'ra, ayrim oilalar zarurat tufayli faqat oila a'zolari ishtirokida o'g'il uylantirish, qiz chiqarish marosimlarini o'tkazmoqda. Demak, to'yni ixcham qilib o'tkazsa ham osmon uzilib yerga tushmaydi!*

*Albatta, karantin cheklovlari bekor qilinib, bosqichma-bosqich ravishda to'y va marosimlarni o'tkazishga ham ruxsat berilmoqda. Ammo ayni paytda to'ylarni ixcham tarzda o'tkazish bo'yicha qat'iy talab va me'yorlarni hayotga tatbiq etish juda zarur! Pandemiya davrida o'zaro mehr-oqibati sinovdan o'tib, yagona maqsad yo'lida birlashgan, ma'naviy jihatdan bir qadar yuksalgan xalqimiz hayotdan asl maqsad nima ekanini yanada teranroq anglab yetdi, nazarimizda. Shunday ekan, hozir millatimizning oyog'iga tushov bo'lib kelayotgan dabdabali to'ylarga chek qo'yishning ayni mavridi!*

Bundan ehtiyoj bo'lishimiz, faqat va faqat aql-idrok ila ish ko'rishimizni o'z asarlarida yozib qoldirgan.

Masalan, ma'rifatparvar bobo-miz Mahmudxo'ja Behbudiy o'z na-shihsalarida: "To'y va ta'ziyaga sarf qilinatur'g'on oqchalarimizni biz, turon-ylar, ilm va din yo'liga sarf etsak, an-qarib ovruvoyilardak taraqqiy etamiz va o'zimizda va dinimizda obro'y va rivoj topar. Yo'q, hozirgi holimizga davom etsak, din va dunyoga zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo'lmaydur", deya aytadi.

Bugun ham jamiyatimizda bu o'giltarga ehtiyoj bor va bu so'zlar qancha davrlar o'tgan bo'lsa-da, hali ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Yaqinda ijtimoiy tarmoqda barchani mulohazaga chorlagan bir xabarni o'qib ta'sirlandim. Chet davlatda uch millat fuqarosi ishlay boshlabdi. Biri o'zbek, qolgan-lari boshqa millat vakillari. Ular har doim uylariga pul jo'natib, bu mablag'larni farzandlarin-ing sog'lig'i va bilim olishi uchun sarflashni tayinlar ekan. Afsuski, bizning vatandoshimiz uyiga pul jo'natganda ayoliga "ertaga xalqqa osh berishimiz kerak", deb har safar jo'natgan mablag'ni turli buyumlarga sarflashni uqtirar ekan.

O'zi xohlagandek, to'y qilgan-dir. Ammo biroz muddat o'tganidan keyin narigi ikki kasbdoshining farzandlari biri shifokor, ikkinchisi iqtisodchi mutaxassis bo'lib, katta joylarda faoliyat boshlabdi. Bir kun-da o'tib ketadigan to'y-hashamga bor-budini sovurgan yurtdoshi-mizning farzandlari esa otasining qora mehnatini davom ettiribdi.

Mutafakkir allomalarimiz yozib qoldirgan bir hikmat bor, "Farzand senga bir kun o'qiladigan qis-sadir". Albatta, bu yerda majoziy ma'no bor. Ya'ni o'zingdan keyin farzanding tomonidan sodir etilayotgan xatti-harakat sen bugun yozayotgan satrlardir. Yaxshi qissa o'qilishini xohlasang, unga bugun ilm va ma'rifat berib, jamiyatda o'z o'miga ega bo'lishiga erishmog'ing kerak. Farzandingni ertaga qan-day ko'rishni istasang, bugun unga shunday munosabatda bo'l. Ertaga ziyoli bir shaxs bo'lib yeshishi, ta'lim-tarbiyasi yo'lida hech narsani qizg'anma, degan xitob bor.

Hasan USMONOV  
yozib oldi.



# Tadbirkor – madadkor

Har bir yoshning jamiyatda munosib o'rin topishi uchun ularni qo'llab-quvvatlash hamda zarur sharoit yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Prezidentimiz yoshlar forumida "Har bir tadbirkor – yoshlarga madatkor" tashabbusini amalga oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berdi. Mazkur loyiha yoshlarning biznes va tadbirkorlik sohasidagi bilim, tajribasini shakllantirish hamda bandligini ta'minlashga qaratilgan. Oradan 1 oy ham o'tmay mazkur yo'nalishda amaliy ishlar boshlab yuborildi.

Ayni paytda "Har bir tadbirkor – yoshlarga madatkor" tamoyili asosida har bir tadbirkorga bir nafardan ishsiz yoshni birlashtirish ishlari boshlandi. Bu yo'ldagi dastlabki qadam sifatida tashkil etilgan o'quv kursida yoshlar daftarga kiritilgan zangotalik yoshlar tadbirkorlik ko'nikmalarini o'rgandi.



uchun ish boshloqmay yurgan edim. "Har bir tadbirkor – yoshlarga madatkor" tamoyili asosida ishlab chiqilgan o'quv dasturida malakali tadbirkorlar, o'qituvchilar tomonidan dars o'tildi. Jarayonda men kabi yoshlar turli treninglarda qatnashib, sohaga oid bilimimzni boyitib bordim. Bundan tashqari, biz uchun jumboqli tuyilgan savollarga javoblar oldik. Kelajakda tadbirkor bo'lib, yuqori natijalarga erishib, o'zim kabi yoshlarni ish bilan ta'minlashni maqsad qildim. Prezidentimiz bizga bildirgan ishonchini oqlash yo'lida tinmay harakat qilaman.

Shuningdek, loyiha doirasida respublikamizda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlar va yoshlar uchrashuvlari tashkil qilinib boshlangan ezgu ishlarining mohiyati tushuntirilmoqda. Olib boriladigan har bir sa'y-harakat aholini tadbirkorlikka faol jalb qilish, yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishga ko'maklashish va natijada yangi ish o'rinlarini ko'paytirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Kamola SOBITJONOVA

## "HUQUQINGIZ BOR" RISOLALARI –



### sodda so'zlar bilan qiyin masalalarni hal etamiz

Aksariyat hollarda insonlarning oddiy, hayotiy huquq va majburiyatlarini bilmasliklari ko'plab muammolarga sabab bo'ladi. Bu esa, ortiqcha vaqt va harajat talab etadigan holatlarni yuzaga keltiradi.

Shu kabi holatlarning oldini olish, yurtdoshlarimizning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish maqsadida Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan "Huquqingiz bor" loyihasi yo'lga qo'yildi.

Yangi loyiha doirasida kundalik hayotimizda duch kelinadigan dolzarb va qiziqarli mavzularda huquqiy-ommabop risolalar nashr etilib, xalqimiz, ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi aholiga yetkazilmoqda.

Ayni paytda qadar TDYUning yetakchi mutaxassislari, professor-o'qituvchilari, shuningdek yosh olimlari tomonidan tayyorlangan, aholining huquq va erkinliklarini amalga oshirishda yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni ijobiy hal etish borasida malakali yuridik maslahatlar berish, ayollarning tazyiqlardan himoyalash bilan bog'liq huquq va erkinliklarini tushuntirish hamda

himoya qilish, gender tengligini ta'minlash, joylardagi inson huquq va erkinliklarini amalga oshirish sohasida hayotiy vaziyatni o'rganish holda yuridik fan va huquqni qo'llash amaliyotining uyg'unligini ta'minlash borasida zarur tavsiya va ko'rsatmalar berilgan, nikoh, aliment, oiladagi zo'rovonlik, meros, chet elda ishlash, yo'l harakati, sog'liqni saqlash, yerga egalik qilish, soliqlar, sudlanganlik kabi masalalarga oid 20 ta risola nashr etildi.

Loyiha tashabbuskoni – TDYU rektori Rahimjon Hakimovning ta'kidlashicha, universitet jamoasi ushbu loyiha orqali qonunchilik mazmunini sodda va ravon tilda tushuntirish bo'yicha adabiyotlar tayyorlashda bebaho tajriba ortiradi. Professor-o'qituvchilar odamlar bilan suhbatlashib, ularning muammolarini tinglab va ularni hal etish bo'yicha tavsiyalarini berdi. Ushbu yo'nalishda qilingan

ishlar va tushuntirishlar keyinchalik risola tarzida shakllantirildi. Aholiga muammolarning yechimini yanada yaqindan tushuntirish maqsadida eng qulay shakl – "savol-javob" uslubi tanlandi.

Bugungi kunda universitet jamoasi risolalarning davomini tayyorlash va chop etish borasida ish olib bormoqda. Navbatdagi to'plamga iste'mol kreditlari, ishga joylashish va mehnat shartnomasini bekor qilish, shuningdek, frilanserlik faoliyati, biznes soliqlari, yoshlar fermerligi hamda boshqa qiziqarli va foydali mavzularda uchrayotgan masalalar va ularni hal etish borasida zarur tavsiyalarni berish ko'zda tutilgan.

"Huquqingiz bor" loyihasi doirasida dastlabki risolalar bepul tarqatilmogda. Ularni aholiga tez va oson uslubda yetkazish maqsadida barcha nashrlar "Huquqiy Shahar" ("Правовой город") mobil ilovasiga joylashtirilgan. Ilovani "Play Market" platformasida quyidagi havola orqali yuklab olish mumkin: <https://cutt.ly/8j1zaoV>.

Toshkent davlat yuridik universitetining jamoatchilik va OAV bilan aloqalar bo'limi

# Kredit-modul tizimi joriy etilmoqda

Maktablar, ilm maskanlari rivojlansa, qolgan barcha sohalar gullab-yashnaydi. Bugungi kunda yurtimizda ta'lim yo'nalishida keng ko'lamli amaliy ishlar qilinmoqda. Jumladan, ko'plab rivojlangan davlatlarda o'z samarasini berayotgan kredit-modul tizimini oliy ta'lim muassasalarimizda joriy etishga kirishilmoqda.



Kredit-modul tizimi – bu o'qitishning modul texnologiyalari jamlanmasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimlari jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: tala-

balarning mustaqil ishlashini ta'minlash va bilimni reyting asosida baholash. Bunda: modul – bir nechta fan hamda kurslar o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismi; kredit – talabning alohida ta'lim yo'nalishi yoki dasturi bo'yicha fanlarni o'zlashtirishi uchun sarflangan vaqti.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingining kuchli mingtaligiga kiritish ko'zda tutilgan. Bu maqsadga erishish uchun xalqaro ta'lim standartlariga

javob beruvchi o'qitish ta'lim tizimini joriy etish zarur. Shu bois, joriy o'quv yilidan yurimiz oliy ta'lim muassasalarida bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tilmoqda. Konsepsiyaga ko'ra, 2030-yilga qadar respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarining 85 foizi, 2020-2021-yilning o'zida 33 ta oliy ta'lim dargohi mazkur tizimiga o'tkaziladi.

Yangi tizim qator oliy ta'lim muassasalarida sinov tariqasida joriy qilinmoqda. Ulardan biri – O'zbekiston Milliy universiteti. Bu dargohda 21 ming nafardan ziyod talaba tahsil oladi. Ma'lum qilinishicha, 2021-2022-o'quv yilida universitet to'liq kredit-modul tizimiga o'tadi.

Shu orqali o'qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta'minlash, ta'lim oluvchining haqiqiy bilimni yuzaga chiqarish hamda talabning mustaqil o'qib-o'rganishi, o'z ustida ishlashiga zamin yaratilishi belgilangan. Eng katta urg'u talabning mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi.

Mazkur tizimning afzallik jihatlari ko'p, – deydi O'zbekiston Milliy universiteti kredit-modul va masofaviy ta'lim bo'limi boshlig'i Sarvar G'iyosov. – Eng avvalo, talaba tanlov fanlar

va professor-o'qituvchilarni tanlash huquqiga ega bo'ladi. An'anaviy ta'limdan farqli o'laroq, mustaqil ta'limga ko'proq e'tibor qaratiladi. Fanlarni o'zlashtirib, qayta imtihon topshirish uchun bakalavrga qabul qilingan talabaga 8 yilgacha, magistratura bosqichida 4 yilgacha muddat beriladi.

Kredit-modul tizimini yo'lga qo'yishda axborot texnologiyalari muhim o'rin tutadi. Shu bois, universitetda "Veb saboq" nomli internet platformasi ishlab chiqilgan bo'lib, bu yerda talaba turli fanlarni va professor-o'qituvchilarni tanlashi mumkin. Shuningdek, turli darsliklardan foydalanish, o'z baholarini kuzatib borish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Yana bir jihat, talaba muayyan fan bo'yicha ta'lim muassasasining shartnomasiga qarab boshqa universitet yoki institutda ham dars tinglash imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zMU 2025-yilgacha xalqaro miqyosda tan olingan "Top-1000 ta'lim", 2028-yilgacha "Top-500 ta'lim" universitetlar ro'yxatiga kirishni maqsad qilgan.

Xurshida AHMADJONOVA





**Ra'no KARAMOVA,**  
Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumanidagi  
1-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi

**Orzu. Har bir inson orzu qilib yashaydi. Ular amalga oshishi uchun nima qilish kerak? Ota-onang yoningda bo'lsa, tilaklaring ro'yobga chiqishida yordam beradi. Lekin hayotda ota-onasidan ajralgan bolalar qancha! Xo'sh, ularning orzulari ijobatiga kim yordam beradi? Kim ularni o'z himoyasiga oladi?**

Men 2010-yildan Mehribonlik uyida ta'lim-tarbiya olib kelmoqdaman. Bilasizmi? Bu yerdagi bolalar hammasi bir dunyo. Turlicha fikrlaydi, turlicha orzu qiladi. Bir kuni men kichik uka-singillarimdan kelajakdagi orzularini rasmdan tasvirlashini so'radim. Shunda 7 yashar bola raketa, mashina, quyosh va bayrog'imiz rasmini chizib, kelajakda askar bo'lib, yurtimizni himoya qilishini aytdi. 6 yashar qizcha onasini yomon ko'rishini, uning yoniga umumam qaytib bormasligini aytdi. 5 yashar qiz esa, gullar, daraxtlarni yaxshi ko'rishini, onasini qattiq sog'in-ganini, toza havoda ota-onasi bilan ovqatlanib o'tirgan rasmini aytib berdi.

To'g'ri, ular hali kichkina, lekin hayotning qiyinchiliklariga qaramay orzu qilishda davom etmoqda. Ular hayotga o'z nigohi bilan qaraydi. Boshimizga nelar tushsa ham, biz orzu qilishda davom etmoqdamiz. Ular mehrga zor deb o'ylamang! Yo'q, chunki bizning kelajagimizni har kuni bizlardanda ko'p o'ylaydigan Prezident otamiz, mehribon onamiz, tarbiyachi-ustozlarimiz bor. Bizning ota-onamiz ham, qayg'u-quvonchimizni ko'radigan ham ular!

Men dastavval hamma to'garaklar ichida raqs to'garagini tanlaganman. Butun zalni egallaganimi, guruh bo'lib o'ynaganimi, bilmadim, menga raqs juda ham yoqdi. Utozim o'rgatgan har bir harakatni diqqat bilan o'rgandim. Tadbirlarda, adabiy kechalarda yakka raqlar ijro etdim. Mening bu iste'dodimni sezgan Mehribonlik uyi direktori – onamiz, har doim o'z ustimda ishlashimni, keajakda katta marraga yetishimni aytdi va ishonadi.

Bir kuni hamma o'rtoqlarim bilan televizor ko'rib o'tirganimizda, xabardan Zulfiyaxonim qizlarini

ko'rsatdi. Shunda hayotda eng birinchi bor chin ko'ngildan orzu qildim. Men katta bo'lsam, Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'laman, dedim! Buning uchun ko'p mehnat qilishim kerak edi. O'z ustimda ishlashda davom etdim, hozir ham tinib-tinchimay izlanmoqdaman.

Nima sababdan buni orzu qildim, bilasizmi? Chunki mendamda maqsad bor edi. Maqsadim Mehribonlik uylari orasidagi va tumanimizdagi eng birinchi Zulfiyaxonim qizi bo'lish. Bu mukofot tanlovida uch marotaba qatnashdim. Birinchi bor qatnashganimda 9-sinf edim. "Qiz nazi" nomli raqsimni ijro etdim, lekin omad menga kulib boqmadi. Aslo, yig'lamadim, tushkunlikka tushmadim, aksincha, yana intildim. Ikkinchi bor ishtirok etganimda 10-sinf edim va yana g'oliblik menga nasib etmadi. O'z ustimda yanada ishlashim kerak, dedim. 11-sinfigimda uchinchi marta qatnashdim, ammo yana "yiqildim". Shunda men tushkunlikka tushdim. Qattiq yig'ladim, hali yosh bo'lsam-da, orzulardan charchadim, ular ro'yobga chiqishiga ishonmay qo'ydim.

Lekin hayot menga kutilmagan sovg'a tortiq etdi. Men Qoraqalpog'iston Respublikasidagi o'quvchi-qizlar o'rnatilgan eng birinchi bo'lib "U'MIT U'SHQI'NI" nomli ko'krak-nishoni bilan taqdirlandim. Hayotimda shunday o'zgarishlar sodir bo'ldi, o'zim ham ishonmasdim. Men tushkunlikka berilgan paytimda onamiz: "Men hech qachon mukofot uchun yugurmadim. Ular meni o'zlari topib oldi", deb aytgan edi. Tarbiyachi-ustozlarim esa: "Hayot hali davom etmoqda, sen orzu qilishdan aslo charchama va orzu qilishda davom et", dedi. Do'stlarim esa men bilan birga yig'lab: "O'zingdan tur, biz kuchlimiz, orzularimizga albatta erishamiz", dedi. Men keyin hammasini batafsil o'ylab ko'rdim. Hammasi onam aytganidek bo'ldi.

Men bunday ko'rak-nishon borligini bilmas edim, lekin unga sazovor bo'ldim. Yana men 11-sinfni a'lo bahoga bitirganim uchun "Oltin medal" bilan taqdirlandim. Onam va ustozlarim aytdiki: "Sening harakating va izlanishlaring mevasi bu. Eng muhimi, sen bizning Mehribonlik uyimiz tarixida eng birinchi "Oltin medal" sohibisanim". Bu meni juda ruhlantirdi. Tarbiyachi-ustozlarim aytganidek "Hayot hali davom etmoqda". "Yiqilgan kurashga to'ymas", deganidek men hali to'xtamayman. Orzum, maqsadimga, albatta, erishaman! Orzularim armon bo'lib qolishiga aslo yo'l qo'ymayman. Bir nimani orzu qildingizmi, shunchaki orzu qilmang, uni maqsadga aylantiring. Angladimki, faqat orzuning o'zi kifoya qilmaydi, unga erishish uchun orzuni maqsadga aylantirish shart!

Maqsad sari dadil qadam tashlayotganingizda hayot sizga KUTILMAGAN SOVG'ALAR in'om etadi. Bu qo'shimcha kuch beradi. Har doim harakatda bo'lish uchun o'zingiz-o'zingizga kuch bering, kitoblarni o'qing, mashhur insonlar tarixi bilan qiziqing. Ularni maqsadga yetishish uchun qanday kurashgani haqida bilib oling.

Men tushkunlikka berilganimda har doim o'zimni o'zim tinchlandirib, mashhur insonlar hayotini ko'z oldimga keltiraman. Masalan, Albert Eynshteyn. U nafaqat buyuk fizik, balki o'z davrining eng dono odamlardan biri! U aytdi: "Mening hech qanday maxsus iste'dodim yo'q. Men shunchaki, juda qiziquvchanman"; "Hech qachon xato qilmagan inson, yangi narsani umumam ta'tib ko'rmaydi"; "Tasavvur – bu hamma narsa. Bu hayotdagi bo'lajak voqealarni ko'rib chiqishdir. Tasavvur bilimdan ham muhimdir". Jon Rokfeller bo'lsa, 100 yil yashashni va 100 ming dollar pul ishlashni

**Har tong oldimzda ikki yo'l turadi: birinchisi, uyg'onib, orzularni amalga oshirish; ikkinchisi, uxlashda davom etib, orzularni tushda ko'rish. O'zingiz tanlang! Hayot davom etar ekan, hali ko'p yiqilamiz, afsuslanamiz, lekin taslim bo'lmaymiz. Kichik orzulardan katta orzularni maqsadga aylantirib, katta MARRAGA erishib, BUYUK degan nomni olamiz. Hech qachon taslim bo'lmang! Omadsiz urunishlardan cho'chimang!**

# ORZU...

(ESSE)

orzu qilgan. U 97 yil umr ko'rdi va 318 milliard dollar pul ishlab topgan. Tomas Edison lampani ixtiro qilguncha 1000 marta xato qilgan.

Hozir mening orzularim kichik bo'lishi mumkin, lekin katta orzularimni hali hech kim bilmaydi. Men orzu qilishda davom etaman, faqat orzuni maqsadga aylantiraman. Siz ham yengildingizmi, o'ringizdan darhol turing va orzuingizni maqsadga aylantiring. Ular shunchaki xayolingizdagi orzu bo'lib qolmasin. Bu qo'lingizdan keladi.

Har tong oldimzda ikki yo'l turadi: birinchisi, uyg'onib, orzularni amalga oshirish; ikkinchisi, uxlashda davom etib, orzularni tushda ko'rish. O'zingiz tanlang! Hayot davom etar ekan, hali ko'p yiqilamiz, afsuslanamiz, lekin taslim bo'lmaymiz. Kichik orzulardan katta orzularni maqsadga aylantirib, katta MARRAGA erishib, BUYUK degan nomni olamiz.

Hech qachon taslim bo'lmang! Omadsiz urunishlardan cho'chimang!

Jek MA Harvard bilim yurtiga 11 marta hujjat topshirgan va rad javobini olgan. J.K.Rouling "Harri Potter" asariga 12 marta rad javobini olgan. Ular taslim bo'lmadi. Bunga qanday erishgan? Sabr, iroda ertangi kunga ishonch, eng muhimi hech qachon taslim bo'lmagan. Orqaga emas, oldingda dadil qadam bosgan.

Agar siz orzuingizni maqsadga aylantirib, harakatda bo'lsangiz, tabriklayman, siz katta natijalarga erishasiz. Agar siz haligacha orzu qilishdan charchab, maqsad qo'yishni o'rganmagan bo'lsangiz, unda siz tez taslim bo'ldingiz, yiqildingiz. Siz o'ringizdan turing. Orzuingizdan voz kechmang. Siz tushkunlikka tushgan bo'lsangiz, demak Marraga oz qoldi! Faqat va faqat ishonchingizni yanada mustahkamlang va orzu qilishdan charchamang – maqsad qo'yishni o'rganing!



# Maqsadga qanday erishiladi?

Maqsadga erishish yo'lida amal qilish kerak bo'lgan besh qoida bor:

## 1. ANIQLIK.

Maqsadingizni aniq belgilab, nimaga intilayotganingizni anglab yeting. Shunda ishlaringizda o'sish bor yoki yo'qligini bilib tutasiz.

## 2. QIYINCHILIKLARGA TAYYOR TURISH.

Maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchilikdan chekinmay, yanada ko'proq mehnat qilishga oshiqing.

## 3. ISHONCH.

Ko'zlagan maqsadga erisha bo'ladi, deb

hisoblang, behuda ishlarga chalg'imang. Olg'a intilish uchun nega qattiq mehnat qilishingiz kerakligi haqida o'zingizni ishonitiruvchi sabablar toping va yodda saqlang.

## 4. FIKRLARNI ETIBORSIZ QOLDIRMASLIK.

Qilgan ishlaringizga bildirilayotgan fikrlarga e'tibor qarating. O'sish va tajribangizni nazorat qiling, shunga qarab zarur bo'lsa, qiyinchilik darajasini o'zgartirish mumkin.

## 5. MURAKKABLIKNI YECHISH.

Agar maqsadga erishish yo'li o'ta murakkab bo'lsa, o'zingizni zo'rqiymay, uni qismlarga bo'lib amalga oshirishga kirishing. Bundan tashqari, insonda xohish-istak bo'lishi, eski xatolarni takrorlamasligi lozim.

1871-yil bahorida bir yigit qo'liga kitobni oldi-da, uning kelajak hayotiga chuqur ta'sir qilgan 22 ta so'zni o'qidi. Bu yigit Monreal shahar kasalxonasida tibbiyotni o'rgangan talaba edi. Uning oldiga qo'ygan maqsadlari ko'p edi. Lekin ularni bajarish uchun o'zida qanday kuch topishni bilmasdi. Kun kelib u zamonasining mashhur terapevt shifokori bo'lib yetishdi. U butun dunyoga mashhur "Jon Xopkins" tibbiyot maktabini tashkil etdi, Oksforddagi tibbiyotning Qirollik professoriga aylandi. Bu odamning ismi Vilyam Osler edi.

U o'qigan so'zlar quyidagilar: "Ayni vaqtda iloji bo'lgan va yaqqol ko'rinish turgan ishni qiling. Bizning vazifamiz shundan iborat, oxiri noma'lum bo'lgan mavhum narsani ko'rishga behuda urinmang".

Maftuna ABDULLAYEVA,  
psixolog

## O'qing, bu qiziq!

✓ Dunyodagi eng qimmat haykal – Alberto Jakometti haykali. "Nuqtali odam" deb nomlanuvchi bu haykal 2015-yil 11-mayda 141 million 285 ming dollarga sotilgan.

✓ Bo'ri o'zidan kuchliroq raqibga qarshi jang qila oladigan yagona hayvon. Agar u jangda yutqazadigan bo'lsa, so'nggi nafasgacha raqibining ko'ziga qarab, jon beradi.

✓ Yava orolida yilning 322 kunida momaqaldiroq gumburlab turadi.

✓ Oq ayiq ovga chiqqanda burnini yashirar ekan. Sababi qora burni uni o'ljaga sezdirib qo'yishi mumkin.

## TABIAT MANZARALARI

# Qunduzlar

Sangzor daryosi qirg'oqlari va havza bo'ylarini makon qilgan qunduz, suv kalamushi, jayra va shu kabi mayda sut emizuvchilar tungi jonivorlar hisoblanib, kun botishi bilan faollashadi.

Ozuqa ilinjida suvga sho'ng'ib, yaxshi suza oladi. Barmoqlari suzgich parda bilan bir-biriga qo'shilib ketgan. Ov qilish ulami toliqtirganda ham chaqqon harakatda bo'ladi.

Qunduzlar ikki yoni va dumi yaltiroq, och qo'ng'ir tusda. Bu jonivorlar bo'sh vaqt topdi deguncha quyosh taftida isinib, taranadi.

Kunlarning birida o'n yashar Kornil bobosiga ergashib ketayotib, daryo yoqasida bir-birining pinjiga kirib olgan qunduz bolalarini ko'rib qoldi. Tug'ilganiga bir hafta ham bo'lmagan jonivorlarning ko'zleri yumug va nochor holda edi. Aftidan himoya va yordamga muhtoj ko'rindirdi. Harakatlanishga madori yo'q mittivoylarning mushkul ahvolda qolishi juda xavfli edi. Negaki, yirtqichlarga tayyor o'lja bo'lishi

turgan gap. Shu topda bobo va nabira jonivorlarga rahmi kelib, ularni olib ketishga qaror qildi. To'satdan kutilmagan voqea yuz berdi. Turg'un amaking yaxshi niyatda ekanini ona qunduz tushunmay qarshilik ko'rsatdi. "Kurash" ijobiy hal bo'ldi.

Bolakayda qunduz bolalarini o'g'rincha ov qiluvchilardan asrash, jonivorlarni parvarishlash istagi paydo bo'ldi. Bobosi esa, bu ta'kidga qarshilik qilmadi. Tez orada hovli o'r-tasida hovuzcha kovlanib, qunduzchalarning hayot tarzi va rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratildi. Mittivoylar o'zini o'nglab, biroz katta bo'lgandan so'ng ularning sevimli go'shisi bo'lgan daryoga qo'yib yuborishdi.

Gavhar BOYNAZAROVA

Kuranbayev Nurali Xudoyor o'g'liga Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanidagi 45-umumiy o'rta ta'lim maktabi tomonidan 2014-yilda berilgan U №6639076 raqamli shahodatnoma hamda Yangiyo'l tumani Gulbahor sanoat kasb-hunar kolleji tomonidan 2016-yilda berilgan K №4864063 raqamli diplom yo'qolganligi sababli BEKOR QILINADI.

## KECHINMA

# Yo'ldaliklar...

Huv ana o'lsidan ko'prik qurayotganlarga ko'zim tushadi. "Qanchalar savob olishayotganini bilis-harmikin, axir bu ko'priknecha minglab odamlarning uzoqini yaqin qiladi. Na faqat, yo'llarni, dillarni ham bog'laydi. Bu ko'prikdan kimdir shoshib yo'lov uc-bog'laydi. Bu ko'prikdan kimdir ikki hissa bo'ladi hun, ko'ngil ovi uchun o'tadi, savob ikki hissa bo'ladi shunda. Kimdir dard tutayotgan, ikki yo'l o'rtasida bo'lgan xotini olib o'tadi, farzand kutib... Yana kim-bir musofirlik kunlariga yakun yasab, ota-onasi yo-niga intiqib, diydorga to'ymoq uchun o'tadi. Kimdir to'yga... kimdir uyga, ishga, o'qishga... ma'rafakaga o'tadi. ... o'tadilar. Hayot chig'irigi aylana-

naveradi. Yo'lovchilarning qadamiga velka tutib ko'prik o'z vazifasini bajaraveradi, ko'prikku, vazifasini bajaradi, biz uning vazifasini bajarishi uchun velka iuta olamizmi? G'ildir-g'ildir chumoli kabi mehnat qilayotgan odamlarning ishiga nafs ilinjida o'g'ri qo'l oralamasmikin: Rahmat, la'natga aylana-masin", degan xayollar ichida qolaman. Nafs, sen juda xavfli yovsan, sendan qo'rqaman. Ustun kelgan chog'ingda, kelajak yo'llariga tikan bosasan. Aslo, yo'llarni, dillarni bog'lovchi ko'priklar omonat bo'lmasin.

yo'q, sen umuman o'zgarmagan-san. Tashqi ko'rinish aldaydi. Yet-kalar tushgan bo'lsa bordir, yuzga ajin oralar, sochlar oqargan bo'lsa nima! Hayot izmi bu. Sening qal-bing o'sha-o'sha. Beg'ubor, pokiza va qaddron. Dugonam!

Eyy, eslagin, momolarimiz qirqandan oshgach, bir-birlarini "jon-shirinin" deb chiqarishgan. Esing-dan chiqmasin, endi, biz ham jon-shirinimiz. Boyadan beri faqat men gapirayapman, senam biron narsa degin. Faqat televidordan gapirib yotasaney...

Tilimning tugunini sog'inch tugib qo'ydimi deymen. Paxsa devor us-tida zardoli terayotib, kechga qadar qilgan gurunlarimizning o'sha qa-ynocq shavqi ichidaman men hali...

Ziyoda AMINOVA,  
jurnalist

YOSHLAR  
OVOZI

MUASSIS  
O'ZBEKISTON  
YOSHLAR ITTIFOQI  
MARKAZIY KENGASHI

## BOSH MUHARRIR

Hamza  
ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda  
№ 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

## MAS'UL KOTIB -

Yelena KALININA  
NAVBATCHI MUHARRIR:  
Ma'mura HUSANOVA

DIZAYNER  
Zafar RO'ZIYEV



Qayta-qayta o'qish uchun  
QR kodini skanirlang yoki  
www.yoshlarovozi.uz

## TAHRIRIYAT MANZILI:

100083, Toshkent, Matbuotchilar  
ko'chasi, 32.

Telefonlar: (78) 150-22-74,  
(71) 236-79-95.

Gazeta materiallari ta'hiriyat kompyuter  
markazida terildi va sahliflandi.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi  
bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi.

Hajmi – 3 bosma taqob.  
Korxonasa manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41.

Indekslar: 203, 3203  
Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma G-255  
Adadi – 770  
Boshiga topshirish vaqti – 21.00  
Topshirildi – 20.02